




ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



Mening dunyom befarqlik  
ummonida suzib yuruvchi  
kichik og'riq oroli!

ZIGMUND FREYD  
(1856-1939)

# 2022

MAY  
№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
8-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-8**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 36 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

<b>1. Mirzayeva Fotima Xolmurodovna</b>	
BOSHLANG'ICH ADABIY TA'LIMDA HIKOYANI O'RGANISH.....	7
<b>2. Niyozov Jumanazar Farkod o'g'li</b>	
THE DEPICTION OF THE EXISTENCE OF GENUINE AMERICAN PERSONALITY IN THE PERIOD OF CONFORMISM IN J. STEINBECK'S THE WINTER OF OUR DISCONTENT .....	9
<b>3. Nurbayeva Marvarid Tavakkalovna, Boynazarova Qizlarmano</b>	
MAVSUMIY-MAROSIM FOLKLORI.....	11
<b>4. Usarova Dilfuza Saloxiddinovna</b>	
BOSHLANG'ICH TA'LIMIDA MASAL JANRINING O'RGANISHNING AHAMIYATI .....	13
<b>5. Х.Утемуратова, Ж.Базарбаева, Х.Утемуратова, Ж.Базарбаева</b>	
ШАЙЫРДЫҢ ХӘМ ДРАМАТУРГТИҢ ДӨРЕТИҮШИЛИК ЛАБОРАТОРИЯСЫН ИЗЕРТЛЕҮ МӘСЕЛЕЛЕРИ .....	15
<b>6. Hojixonov Azizbek Sheraliyevich</b>	
"RAYMALI OG'A VA BEGIMOY" RIVOYATIDA SEVGI-MUHABBAT TASVIRI .....	17
<b>7. Mamatov Shavkat Muyassarovich, Qilicheva Zulayxo Ne'matillo qizi</b>	
ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI .....	20
<b>8. Raximova Dilnoza, Qutliyeva Manzura</b>	
HAMZA IJODI TO'G'RISIDA MANBALAR.....	22
<b>9. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич</b>	
T.МӘТМУРАТОВТЫҢ «САДЫҚЛЫҚ» ПОЭМАСЫНДА КӨРКЕМ СҮҮРӨТЛЕҮ УСЫЛ- ЛАРЫ .....	24
<b>10. Bozorova Gulnora Mustafoyevna</b>	
GRAMMATIK MAVZULARNI O'QITISH METODIKASI .....	26
<b>11. Ismoilova Muborak Karimberdiyevna</b>	
O'ZBEK XALQ DOSTONLARIDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.....	28
<b>12. Usmonxo'jayeva Sarvinoz</b>	
BADIIY ADABIYOTDA TARIXIY VA AFSONAVIY QAHRAMONLAR TALQININING QIYOSIY T AHLILI.....	30
<b>13. Yuldashev Dilmurod Ne'mat o`g'li</b>	
RAUF PARFI TARJIMALARIDA LIRIK SUBYEKT TADRIJI.....	34
<b>14. Samandarova Intizor Xaydarovna</b>	
O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISH USULLARI.....	32



## АДАБИЁТ

### BOSHLANG‘ICH ADABIY TA’LIMDA HIKOYANI O’RGANISH

Mirzayeva Fotima Xolmurodovna,  
Navoiy viloyati, Navoiy shahar 17-maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
Telefon: 998 93 612 96 23

**Annotatsiya:** Maqlada hikoya janrining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘qish darsida hikoyani o‘rganishga oid ish turlari, hikoya matni ustida ishslash yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Inson shaxsi, hayoti, qahramonlar, so‘z, iboralar, qo‘rroq, asar mazmuni, lug‘at ishi, asosiy g‘oyasi, usul,savollar, syujeti, nutq boyligi, ahamiyati.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida hikoya janriga mansub kichik hajmli badiiy asarlar o‘rganiladi. Hikoya mazmuni va shakli jihatidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagagi bolalarni qahramonlarning xatti-harakatlari, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, turli voqealarning haqidagi hikoyalar ko‘proq qiziqqtiradi.

Hikoya janridagi bitiklar hayotiyligi bilan o‘ziga xosdir. Unda voqealar tez rivojlanib boradi. Hikoya inson shaxsi va hayoti bilan bog‘liq lavhalar bayon etiladi. O‘quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlari bilan qiziqadilar.

Hikoya biror bir davr bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar qahramonlarning ma‘naviyatiga bo‘lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong‘i tomonlari xususida ham muayyan tushunchaga ega bo‘lib boradilar.

Boshlang‘ich ta‘limning “O‘qish kitobi” darsliklaridan o‘rin olgan hikoyalar mavzu jihatdan xilma-xil bo‘lishi, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham bir-biridan farqlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishslash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Darsda o‘qilayotgan hikoyadagi o‘quvchilar ma’nosini tushunmaydigan so‘z va iboralar ma’nosini tushuntirish ham muhim, aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So‘z ma’nosini tushuntirishga ko‘p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo‘lgan so‘zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi.

Masalan, 4-sinfda Sunatulla Anorboyevning “Qo‘rroq” hikoyasi 1-qismini o‘rganish darsida dastlab hikoya matni o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi. So‘ngra ushbu lug‘at ishi o‘tkaziladi:

**jiyirish** – qiyshaytirish

**irg‘ib minish** – sakrab, siltanib minish

Asarani o‘qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish markaziy o‘rin egallaydi. Hikoyaning I qismi o‘quvchilarga navbatli bilan o‘qitilgach, o‘quvchilar o‘ylashi, o‘z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanadi. O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib-o‘rganib, ularga javob berishadi.

1. Bolalar nima uchun Bahromni “qo‘rroq” deb atashardi?

2. Bahrom nega kechqurun yo‘lga otlandi?

O‘qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad, hikoya bolalarga yoqqan-yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta’sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. SHundan keyingina hikoya mazmun-mohiyatini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g‘oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalananadi.

O‘qituvchi darslikdan tashqari o‘quvchilarga quyidagi savollarni berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Bolalar Bahromga nima deb ozor berishadi?

2. Bahrom qorong‘i tushganda tashqariga chiqish uchun nima qiladi?



3. Bolalar uni qanday masxaralashdi?
4. Onasi Bahromga nega yolg‘iz ko‘chaga chiqma deydi?
5. Uchinchi fermadan kelgan bolalar Bahromni qanday xafa qilishdi?
6. Yotoqxonada yakka qolgan Bahrom nima qildi?

Bu kabi savollarga o‘quvchilar javob berish orqali ular hikoya xarakterini tushunib oladi, asarning asosiy g’oyasini biladilar. Hikoya mazmunini, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o‘quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va darsni jonlantiradi. Bu usul hikoya mazmunini yaxshi tushunish, mazmun va voqealar orasidagi bog’lanishni to’liq esda saqlab qolishda o‘quvchilarga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganishga taqdim etilgan hikoyalar syujeti qahramonlarini o‘rganish bo‘yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o‘quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

Hikoyani o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g’oyani bilib olishlari uchun matn bilan ishslash jarayonida tanlab o‘qish, savollarga javob berish, hikoya qismiga o‘zlari savol tuzishi, qismlarga sarlavha topish, so‘z bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, to‘liq, qisqartirib va qayta hikoyalash, ifodali o‘qish kabi ish turlaridan foydalilaniladi.

Muxtasar qilib aytganda, hikoyaning ta’lim-tarbiyaviy, ma’naviy jihatdan ahamiyati katta. Hikoya matni ustida ishslash orqali o‘quvchilarning nutq boyligi rivojlanadi, ularda Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, qahramonlik xislatlari, go‘zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg‘usi shakllanib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Husanboyeva.Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2009-y.
2. O‘qish fanidan o‘quv dasturi. (1-4-sinf) Toshkent-2017.
3. O‘qish kitobi (4-sinf uchun darslik). T. 2017-y.
4. [www.ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz)



## THE DEPICTION OF THE EXISTENCE OF GENUINE AMERICAN PERSONALITY IN THE PERIOD OF CONFORMISM IN J. STEINBECK’S THE WINTER OF OUR DISCONTENT

Niyozov Jumanazar Farxod o'g'li

Teacher at Uzbekistan State  
University of World Languages  
jumanazarnf@gmail.com

**Annotation:** The results of many scholarly papers demonstrate that John Steinbeck deeply cared about people, especially common people who often served as his topic. In the case of *The Winter of Our Discontent*, some have made the interpretation that Steinbeck is anti-capitalist and anti-industrialist because of his desire to document the harsh impact of consumerism on people's morality, but in reality, Steinbeck's novel documented his own ambivalent beliefs and attitudes regarding the increase in economics in 1950s.

**Key words:** consumerism, morality, socioeconomic violation, ethical violation

Although the novel *The Winter of Our Discontent* depicts the conformism conquered the majority of the Americans' mentality, there were people that kept a harsh fight against that mind-set and some maintained nation's nearly forgotten values. Ethan Allen Hawley is the epitome of first types of people and Richard Walder is of the latter. Steinbeck presents Richard Walder in Ethan Allen Hawley's life as redemption.

The last chapter of *The Winter of Our Discontent* presents Ethan's commentary of individuals' lights (i.e. moral goodness) shining, and Ethan's light metaphor is greatly influenced by Richard Walder. Richard first uses the light metaphor as translation for Mr. Marullo's commentary about Ethan. In Chapter Fifteen, Ethan and Richard have their second and also final conversation together. Richard informs Ethan that Mr. Marullo has bequeathed to him the store. Richard states, "*I promised Marullo I'd come out here. He wants to give you the store*". Even though Ethan learns Richard's reason for his visit to the grocery store, Ethan asks Richard, "*Why did you drive out here?*". Richard then answers, "*Don't know exactly. Had to – maybe – so the light won't go out*". Before Ethan's question, Richard explains the following about Mr. Marullo: "*I'm trying to translate what he tried to explain*" [3, pp 224-225]. Thus, Richard has analyzed Mr. Marullo's heartfelt intentions and has then inserted his philosophical translation of them. Later in Chapter Sixteen, Ethan reflects upon Richard's commentary. Steinbeck writes, "*So the light won't go out. Did Alfio say it that way? Walder didn't know, but he did know that's what Marullo meant*" [3, p.229]. Richard has kept his promise to Mr. Marullo to deliver the news about his bequest of the store to Ethan and to speak on behalf of Mr. Marullo. Richard's translated words of wisdom are somewhat mysterious and ambiguous. Richard seemingly includes additional wisdom. Steinbeck does not inform readers if Mr. Marullo is the guaranteed initial agent or authority of this phrase: "*so the light won't go out*". Nevertheless, Walder may be the agent. Miller writes, "*Steinbeck's choices about what we are allowed to know about each character; especially Ethan, provide ambiguity and complexity as we strive to understand Ethan's moral decline*" [2, p.14]. Miller's statement is applicable here also: "*In the book, then, not everything is said, and for everything to be said we must await the critical 'explicit', which may actually be interminable*" [2, p.16]. Walder's care with words asserts that he is continually honest and moral, and he would not steal someone else's words or ideas. Walder even acknowledges being a translator for Mr. Marullo. Richard thus is not a plagiarist. Walder believes in giving attribution. Richard's respect for the invention of ideas is analogous to Ethan's respect for the invention of ideas. Richard Walder's presence in Ethan's life is brief, yet Richard's words carry power and influence upon Ethan in the final scene of *The Winter of Our Discontent*.

Richard Walder is a successful person in socioeconomic society and a successful person in ethical society. Hayashi writes, "*Ethan, the hero, makes a gallant but unsuccessful effort to remain pure in such a polluted environment*" [3, p.110]. But Richard is pure with his understanding of the "polluted environment," consisting of duplicity and chicanery. Richard tells Ethan, "*If you get conditioned by crooks and liars and cheats, why, an honest man can shock the hell out of you*". Richard's presence in Ethan's life is as a trusted brother figure. In their second meeting, Richard



helps Ethan in the grocery store without being asked. Steinbeck writes, “*He reached in front of me to ring up cash on the register*”. Ethan does not stop Richard, a stranger, from working at the cash register, signifying Ethan’s trust of Richard. Richard is loyal in that he keeps his promise to Mr. Marullo and tells Ethan of his inheritance of the grocery store. Richard’s journey to New Baytown to deliver this news is on his own time – not work time, i.e. paid socioeconomic time. Rather, Richard’s act of travel to Ethan is altruistic, which is void of any socioeconomic gain for himself. Ironically, Richard’s visit may create a workplace (socioeconomic) violation because Richard states that he is “*not even sure the department would approve*” of this visit, but Richard’s visit does not create an ethical violation. Furthermore, the travel to New Baytown has taken Richard “*three hours from New York and I’ve got to drive three hours back in holiday traffic*” [3, pp.222-224]. Richard’s presentation in *The Winter of Our Discontent* is not lengthy, but Steinbeck has provided depth and detail to this character. Richard Walder is observant, loyal, and resolute in his pure stance while he is also appropriately sceptical.

Richard Walder serves as hopeful inspiration that a person can be successful at both socioeconomics and ethics even though so many characters in *The Winter of Our Discontent* are presented as only one or the other. In *Citizen Cain: Ethan Hawley’s Double Identity in The Winter of Our Discontent*, Meyer states,

“*Up to the time the novel begins, Ethan has served as an Abel, a passive victim whose fortunes have fallen as more aggressive Cains have asserted their claims on society ... It is becoming increasingly clear to Ethan that maintaining an Abel role will bring him neither happiness nor success*” [1, p.200].

Specifically, Meyer equates the Abel role with Ethan’s heretofore “*mild-mannered ethical actions*”. However, Steinbeck gives readers an admirable character in Richard Walder who encompasses all-around success while he acts honorably in socioeconomic society. Seeing Richard’s life shows Ethan honourable people can and do succeed in socioeconomic society. By meeting Richard Walder, Ethan realizes the possibility of honourable socioeconomic success versus the heretofore-dishonourable successes he has witnessed and himself experienced. Meyer also assesses the Abel role positively with the following: “*Ethan’s reaction to his son’s plagiarism and to Marullo’s misplaced confidence offers hope that he will return to his former Abel state*” [1, p.208]. Steinbeck indirectly asserts Richard Walder’s successful “Abel” life upon Ethan because Ethan intently analyses Richard’s words of wisdom after their second meeting.

In the last chapter of *The Winter of Our Discontent*, Ethan observes and analyses lights. When Ethan states in the novel’s last chapter, “My light is out”, this occurs while he assesses the moral lights of Mr. Marullo, Old Cap’n Hawley, and Aunt Deborah who continuously bequeath their kindness, humanity, and pedagogy through Ethan’s remembrance of them.

“*I rolled on one hip and reached in my side pocket for my razor blades and I felt the lump. For a moment it resisted coming out of my wet pocket...*

*I had to get back—had to return the talisman to its new owner.*

*Else another light might go out* [3, p.275].”

Ethan discovers and is inspired by his belief that he wants Ellen to have the saving grace of life’s goodness. Ethan’s reliance and faith on his daughter’s “light” symbolises moral goodness. He is strengthened by Ellen’s strength. Hence, Ethan decides to fight for his life to make sure his daughter, Ellen has goodness in her life, which is Ethan’s final, truly altruistic act directed toward the future.

## References

1. Meyer, Michael. *Citizen Cain: Ethan Hawley’s Double Identity in The Winter of Our Discontent*. Ed. Donald V. Coers, Paul D. Ruffin and Robert J. DeMott. Athens, OH: Ohio University Press, 2005.
2. Miller, Randall D. Teaching John Steinbeck’s *The Winter of Our Discontent* to University Undergraduates. *Steinbeck Review*. 2.1 (Spring 2005): 13-24. Web. 25 Jul. 2014.
3. Steinbeck, John. *The Winter of Our Discontent*. New York: Penguin Books, 1961.



## MAVSUMIY-MAROSIM FOLKLORI

**Nurbayeva Marvarid Tavakkalovna**

Qarshi davlat universitetining  
Pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Telefon: +998(91) 454-63-76  
[marvarid\\_nurbayeva@mail.ru](mailto:marvarid_nurbayeva@mail.ru)

**Boynazarova Qizlarmano**

Qarshi davlat universitetining  
Pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining mavsumiy-marosim folklori haqida fikr yuritilgan. Marosimlar xalq orasida qat'iy an'anaga aylangan tadbir ekanligi, necha vaqtlar o'tsa hamki, nishonlanib, xalqimizning hayot tarziga aylanib ketganligi, xalq marosimlari shakl va mazmunidan qat'i nazar bugungi kunimizni o'tmish bilan bog'lab turuvchi ma'nnaviy zanjir ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** folklor, mavsum, marosim, fasl, xalq, taraqqiyot, dehqon, chorvador, Navro'z, to'y, an'ana.

O'zbek xalqi mavsumiy marosimlarga boy xalqlardan. Bu marosimlar yilning to'rt fasliga oid marosimlardir. Bizning jannatmakon Vatanimizda yilning to'rt fasli ham betakror va go'zal bo'ladi. Bahor fasli o'zining yangilanish-yasharish, ko'klamligi bilan ajralib tursa, qish fasli ham o'z ziynati bilan betakror tarovat baxsh etadi. Har bir marosimning o'tkazilish fasli va vaqtি bor. Bahoriy marosimlar bahor faslida, qishgi marosimlar qish faslida o'tkaziladi. Shu boisdan, bizning xalqimiz bahorgi, yozgi, kuzgi, qishgi marosimlarni nishonlab kelishadi. Shu maqsadda ushbu maqolada mavsumiy-marosim folklorlari haqida ma'lumot berishni lozim topdik.

Bahor fasli kirishi bilan dehqon va chorvadorlarning dala ishlari boshlanadi. Ushbu faslda dehqon urug' sepishga tayyorgarlik ko'rsa, chorvador yaylovlarga ko'chishga tayyorgarlik ko'radi. Dehqonlar va chorvadorlar turmushidagi barcha og'ir yumushlar esa ilgarilari hashar yo'li bilan amalgalashirilgan. Arik va kanallar qazish paytida "Loy tutish" marosimi o'tkazilgan. Ushbu marosim quyidagicha o'tkazilgan. Biror kishi arik qazuvchilar yonidan o'tib qolsa, uning qo'liga ketmon yoki belda loy tutishgan. U tutilgan loyni tuta olishmasa, qo'shiqchi bo'lsa, qo'shiq aytishi, baxshi bo'lsa, dostonlardan biror terma kuylashi, polvon bo'lsa, kurash tushishi, temirchi bo'lsa, hasharchilarning zarur asbob-uskunalarini ta'mirlab berishi lozim bo'lgan. Aytilgan hunarlardan birortasi bo'lmasa, o'ziga belgilab bergen yerning arig'ini qazib berishi yoki arik qazuvchilarni mehmon qilishi kerak bo'lgan. Bu marosim humor bilan sug'orilgan marosim bo'lib, kishilarni mehnatga ruhlantirish, ularning kayfiyatini ko'tarishga xizmat qilgan.

"Shox moylar" marosimi. Ushbu marosim dalaga qo'shchiqarish vaqtida o'tkaziladigan marosim. Bu marosim vaqtি qishloq oqsoqollari tomonidan belgilangan. Har bir xonardon imkoniyatiga qarab xilma-xil taomlar pishirishgan, qishloqning obod yerkari supurib-sidirilgan, sholcha-gilamlar to'shalgan. Qishloq oqsoqoli to'planganlarga duo-yi fotiha bergen. Keyin qo'shga olib chiqilgan ho'kizlarning shoxlariga "Yomon ko'zdan asrasin", - deb zig'ir moyi surtilgan va ins-jinslar, yomon ruhlardan pok bo'lsin deb, isiriq tutatishgan. Ushbu marosim dehqon faoliyatining boshlanishidan darak beruvchi marosim bo'lgan. Zamonlar o'zgarib, dehqonlar hayotiga texnikaning kirib kelishi bilan bu marosim hozirgi kunda o'tkazilmay qolgan.

O'rta Osiyo xalqlarining juda qadimdan keng nishonlanib kelinadigan bahoriy bayramlaridan biri Navro'z bayramidir. Qadimgi ajdodlarimiz tabiatni doim jonli narsa sifatida tasavvur qilganlar. Kuz mavsumidan boshlab tabiat asta sekin uyquga keta boshlagan va qish faslida butunlay uxlagan. Tabiatdagи bu "o'lim" 20-martga qadar davom etgan. Biroq hamal oyi kirishi bilan tabiat yana "tirila" boshlagan. Bevosita mana shu vaqtidan boshlab kunlar uzayishi kuzatilgan.

Navro'z atamasining asosida ham yangi yilning dastlabki, ya'ni yangi kuni ma'nosi yotadi. Demak, Navro'z hech qanday diniy bayram emas, u bahor bayrami, tabiat va jamiyatdagi jonlanishning boshlanishidan darak beruvchi bayramdir. Navro'zni 21-martdan boshlash xalqning islomgacha bo'lgan an'anasi hisoblanadi. Biroq Sosoniylar davriga kelib, Navro'zni davlat bayramiga aylantirishga harakat qilindi. Natijada bayram mart oyida emas, balki yozdagи kunning



eng uzunligi paytida 21-22-iyun kunlari nishonlana boshlandi. Ammo bu an'ana xalq o'rtasida mustahkam qaror topmadni. Navro'z yana 21-martda nishonlana boshlandi. Navro'z dasturxonida boshqa taomlar bilan birga arab yozuvidagi "sin" ya'ni "s" tovushi bilan boshlanadigan yetti xil narsa qo'yilishi shart bo'lgan. Bu narsalar quyidagilar: sipand, sib (olma), siyoh done (sedona), sinjid (zaytun yog'i), sirk, sarimsoq, sabziy (bug'doy maysasi). Dasturxon o'rtasiga tol, zaytun, behi, anor, tut kabi daraxt novdalaridan yetti dona qo'yilgan. Navro'z bayramida maxsus taom sumalak pishirilgan. Sumalak - tabiatning, hayotning abadiy harakatini o'zida ifodalovchi ramziy taomdir.

"Choy momo" marosimi. Uzoq ajdodlarimiz shamolga g'ayri tabiiy kuch-qudratga ega bo'lgan jonli mavjudot sifatida munosabatda bo'lganlar. Ushbu marosim ana shunday qarashlarning yorqin ifodasıdır. Marosim surunkali davom etgan qattiq shamollarni to'xtatish maqsadida o'tkazilgan. Marosim atamasi shamol ma'nosini anglatuvchi "chuy" so'zidan olingan. Qadimgi turkiy xalqlarda shamol homiysi keksa ayol sifatida tasavvur qilingan. Keyinchalik shamol ona ma'nosini aniqroq ifodalashi uchun "choy" so'ziga "momo" so'zi qo'shilgan. Marosim kuchli shamolni to'xtatish uchun o'tkazilgan.

Xalqimiz hayotida ham marosimlar alohida ahamiyat kasb etadi. Marosim arab tilidagi "marsum" so'zidan olingan bo'lib, rasm qilingan, odat bo'lgan ma'nolarini anglatadi. Har bir inson hayoti davomida turli maqsadlarda tashkil etilgan va xalq orasida odat tusiga kirgan marosimlarda ishtirok etadi. Inson jamiyat bilan birga yashar ekan hayoti davomida marosimlar tashkil etadi. Bu marosimlar to'ylardan, yig'inlardan, ma'rakalardan iborat bo'lishi mumkin. Marosimlar qadimda insonga sihat-salomatlilik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki turli xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun o'tkazilgan. Marosimlar xalq orasida qat'iy an'anaga aylangan tadbir hisoblanadi. Necha vaqtlar o'tsa hamki nishonlanib, xalqimizning hayot tarziga aylanib ketgan. Misol tariqasida to'y marosimini keltirsak, qizni turmushga berish to'yi yigit tomonidan qiz yashaydigan oilagasovchi kelishidan boshlanadi. "Sovchi" atamasini Mahmud Koshg'ariy o'z asarlarida "xabarchi", "elchi" ma'nolarida qayd etib o'tgan. Sovchi bo'lajak kelin oilasiga kuyov haqida ma'lumot beradi va kelin haqidagi xabarni yigitnikiga olib ketadi. Shundan so'ng ikki tarafning kelishuviga binoan fotiha to'yi o'tkaziladi. To'y marosimi ham to'y olib kelish, ziyofat berish, yor-yor aytish kabi sahnalardan iborat bo'ladi. O'zbek xalqining an'analari, odatlari, rasm-rusumlari, mavsum-marosim folklorlari o'zbek xalqini boshqa xalq an'analari va marosimlaridan farq qilib turadigan yagona jihat, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki o'zbek xalqiga boshqa millat vakillari ham qiziqmoqdalar. Milliy kiyinishimizdan tortib nishonlaydigan marosimlarimizgacha ularda o'zgacha havas va qiziqish uyg'otmoqda. Insonning tug'ilishi, uylanishi, turmushga chiqishi bor ekan, marosimlarimiz ham davom etaveradi. Zamonlar, vaqtlar o'tishi bilan ba'zi odat va rasm-rusumlarimiz yo'qolar, lekin ularning o'mniga yangisi qo'shib sayqallanib boraveradi. Xalq marosimlari shakl va mazmunidan qat'i nazar bugungi kunimizni o'tmisht bilan bog'lab turuvchi ma'naviy zanjir hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, barcha marosimlar juda qadim zamonlarda kishilar tabiat va tabiat hodisalarini jonli mavjudot sifatida tasavvur qilib, ularga sig'ingan vaqtarda vujudga kelgan. Taraqqiyot va kishilar dunyoqarashining o'sishi natijasida bunday marosimlar o'tkazilmay qolgan. Faqatgina bu marosimlarning ayrimlari chekka qishloqlarda, tog'li hududlarda, turli-tuman o'zgarishlarda saqlanib qolgan. Marosim folklorlari hozirgi kunda ham xalq qadriyatlarining go'zal namunalari sifatida xalqimiz dunyoqarashi va mafkurasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Madayev, T.Sobitova "Xalq og'zaki poetik ijodi". T.: "Sharq" - 2011.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Oltinchi jild. Toshkent. 2003-yil.
3. "Arxiv.uz".



BOSHLANG‘ICH TA’LIMIDA MASAL JANRINING O’RGANISHNING AHAMIYATI

Usarova Dilfuza Saloxiddinovna,  
Navoiy viloyati, Navoiy shahar 15-maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
Telefon: 998 93 310 61 63

**Annotatsiya:** Maqlada masal janriga xos xususiyatlar, masalning ta’lim-tarbiyasidagi roli hamda boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganish uchun tavsiya etilgan masallar haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kinoyaviy xarakter, antik adabiyot, feudal jamiyat, o‘zbek adabiyoti, hayvonlar, xatti-harakati, kishilar hayoti, ma’naviy ozuqa, kitobxonlik madaniyati.

Masal - axloqiy, satirik va kesatiq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she’riy, ba’zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o’simliklar dunyosiga ko’chiriladi. Timsollarining kinoyaviy xarakterda bo’lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko’pincha masalning kirish qismida, ba’zan pirovardida qissadan hissa - ibratli xulosa chiqariladi. Masalda biror voqeа-hodisa qisqa, mazmunli tasvirlanadi.

Masal janrining paydo bo‘lish uzoq o‘tmish davrlarga borib taqaladi. Jumladan, antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo’lgan. Ezop quldorlik jamiyatni sharoitida hukmron doiralarning jirkanch kirdikorlarini ochiqdan-ochiq tanqid qilish ilojini topolmagach, o‘zining satirik asarlarini kinoyaviy til va uslubda yozishga majbur bo’lgan.

Feodal jamiyatda yashab ijod etgan mashhur rus masalchisi I. A. Krilov ham, atoqli o‘zbek masalchisi Gulxaniy ham “ezop tili”da yozganlar. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy dostonlarining bir qancha epizodlari, “SHer bilan Durroj”, “Kabutar” singari masallar insonlarda yaxshi xislatlarni tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi.

O‘zbek adabiyotida Sayido Nasafiy, Maxmur, Gulxaniy kabi shoirlar ham Navoiy an’analarini davom ettirganlar, bolalarga mos ko’pgina masallar yaratganlar.

Hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, gullar haqidagi majoziy asarlarni bolalar qiziqib o‘qiydilar. Mana shu nuqtai nazardan Sayido Nasafiyning “Bahoriyot” (“Hayvonotnomma”) asari ahamiyatlidir. Nasafiyning masallari, Mashhur masalnavis Gulxaniyning “Toshbaqa bilan CHayon”, “Maymun bilan Najjor” masallari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do’stlik, rostgo’ylik, qo’lidan kelmaydigan ishga urinmaslik kabi g’oyalar ilgari suriladi.

Ma’lumki, tarbiya ko’proq ta’lim jarayonida berib boriladi. Bolalar maktabga kelgan kunidan boshlab, ularga bilim olishga havas tuyg’usi shakllantiriladi. Bolalarda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo’ladi va bu orqali o‘quvchilar ma’naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatsevarlik, sofkillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g’urur, matonat, mehr-oqibat, do’stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo’ladi.

Masallarda yashiringan o’tkir kinoya, voqealarning tez-tez o’rin almashinib turishi uni bir maromda o‘qishga xalaqit beradi. SHuning uchun ifodali o‘qishga yetarli malaka hosil qilmagan o‘quvchi avval matn bilan yaxshilab tanishib chiqishi lozim. Darsda masalning allegorik mazmuniga to’xtalmasdan, bosh qahramon qiyofasini tahlil qilishga kirishiladi. 1-sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o‘xhash kulguli asar kabi qabul qilsalar, 2-sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o‘zaro munosabatlari ba’zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko’proq she’riy tarzda bo’lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar.

Abdulla Avloniyning “Bolari bilan pashsha” masali 3-sinfda, F. Musajonovning “Ikki irmoq” masali 4-sinfda o‘tiladi. Shuni aytish joizki, 4-sinf o‘qish darslarida o‘rganiladigan “Chumchuq bilan chumoli” ertagi, P. Qodirovning “Ola buzoq”, va Anvar Obidjonning “Jo‘ja” she’rlari mazmunan ixchamligi, tilining soddaligi bilan masal janriga yaqin turadi.

O‘qish darslarida masal tahlil qilinayotganda, voqeа rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o‘quvchilarga yordam berish zarur. CHunonchi, ularga ayrim epizodlarni so’z bilan tasvirlash, ba’zilariga o‘qituvchi yordamida tavsif berish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo’lib o‘qish kabilarni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Qahramonlarga tavsif berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o’ziga xos xususiyatlaridan ham foydalilanadi. Masalni ifodali



o'qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, muallif tilini yaxshi tushunish zarur

Masalning, avvalo, ixchamliligi, tilining qisqa va lo'ndaligi, soddaligi, o'tkirligi va xalqchilligi bola hissiyotiga qattiq ta'sir qiladi. Bular o'quvchilar nutqini o'stirishda ham muhim material hisoblanadi. Masal qahramonlarining xatti-harakatlari, fe'l-atvorlari, nutqiy o'ziga xosliklari o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qiladi. Masal janridagi asarlar boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar turli mavzudagi masallarni mutolaa qilishi ularda umuminsoniy fazilatlarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo amaldagi boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida masal janriga kam o'rinn berilgan. Vaholanki, masaldagi axloqiy va tarbiyaviy masalalarga doir fikr hamda qarashlari bolalarning o'qish va tarbiyasida katta ahamiyat kasb etishi bilan birga, ularning kitobxonlik madaniyatini ham kengaytiradi.

Demak, sinfdan tashqari o'qish darslarida bolalarbop masallarni o'rganishni amalga oshirish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, "O'qituvchi", 2005-y.
2. Umumiyl o'rta ta'lim muassasalarining yangi tahrirdagi o'quv dasturi (1-4-sinf o'qish). T. 2017-y.
3. O'qish kitobi (-sinf uchun darslik). T. 2017-y.
4. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). T. 2017-y.
5. <http://www.ziynet.uz/>



## ШАЙЫРДЫҢ ХӘМ ДРАМАТУРГТИҢ ДӘРЕТИҮШИЛИК ЛАБОРАТОРИЯСЫН ИЗЕРТЛЕҮ МӘСЕЛЕЛЕРИ

**Х.Утемуратова, Ж.Базарбаева**

Өзбекстан Республикасы Илимлер Академиясы  
Қарақалпакстан бөлими Қарақалпақ гуманитар  
илимлер илим-изертлеү институты, Некис қаласы

**Аннотация:** Ушбу мақолада ёзувчининг, драматург, олим ва шоирнинг ижодий лабораторияси масаласи хусусида сүз юритилади. Олимлар Т.Н.Александрова, Р.Г.Фатхрахманов, Н.Зиедуллаева, З.У.Бекбергенова ва Э.Салимзяновалар ўзларининг тадқиқотларида бу түғрисида фикр юритади. Мақола қорақалпоқ адабиетшунослигидаги долзарб муаммоларининг бирига бағишиланган.

**Калит сүзлар:** Ижод, ижодий маҳорат, назм, ижодкор стили, бадиий адабиёт, повесть, поэма, баллада, драма, комедия, композиция.

## ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ЛАБОРАТОРИИ ПОЭТА И ДРАМАТУРГА

**Х.Утемуратова, Ж.Базарбаева**

Каракалпакский научно-исследовательский  
институт гуманитарных наук Каракалпакского  
отделения Академии наук Республики Узбекистан, Нукус

**Аннотация:** В этой статье анализируется проблема творческой лаборатории писателя, драматурга, ученого и поэта. Ученые Т.Н.Александрова, Р.Г.Фатхрахманов, Н.Зиедуллаева, З.У.Бекбергенова, Э.Ш.Салимзянова в своих исследованиях затронули эту проблему. Статья посвящена одной из актуальных проблем каракалпакского литературоведения.

**Ключевые слова:** Творчество, мастерство, поэзия, стиль, художественная литература, повесть, поэма, баллада, драма, комедия, композиция.

Белгили бир шығармалар туýралы, мейли эсселер, эпопея, романлар, повестьлер, поэмалар, балладалар, одалар, сонетлер, трагедия, драмалар, комедия интермедия болсын, дәслеп дәретиўши инсан ойланады, темасын, сюжетин, композициялық құрылышын қайта-қайта өзгертерди. Шайырлардың, драматурглердин дәретиўшилик лабораториясын изертлеү әдебияттаның өз шешимин күтип турған мәселелерден саналады. Қарақалпақ шайырлары қосық, йоштың-илхәмниң орны, қосықтың жазылышы тарихы туýралы әдеүир сөз еткен. Шайырлардың, драматурглердин дәретиўшилик лабораториясының өзгешелигин белгилеү бир қанша қызыншылық пайда етеди [1;106-111]. Татар, башқорт илимпазлары Э.Салимзянова [7;29], Н.Юзеев «хәзирги татар поэтикасы» атлы изертлеү жумысында бул бағдарда қызықты жуýмақларға келеди [10;253]. Поэзияда йоштың орны туýралы шайырлардың өзлери де жазады. Шынында да, шайырлардың, драматурглердин, илимпазлар менен жазыўшылардың дәретиўшилик лабораторияларын изертлеп қарағанда, барлығына тийисли улыўмалық белгилер менен бирге жеке-дара қәсийетлер де - талант дәрежеси, бақлаўшылық, өмирдеги тәжирийбесиниң орны киби сыйпатлары сезиледи. Шайырлар Б.Нурназарова, Н.Турешова, К.Рахманов, жазыўшы, илимпаз Ж.Хошниязов дәретиўшилик лабораториясына тән белгилерден бири-ол автобиографиялық материалдың қолланылыбы болады [2;114-116]. «Далаларым, бабаларым», «Жасыл мәўсүм», «Абылайсан», «куяштың жасы», «Балалықтың булдыр аспаны» сыйқылы китаплары белгили болды. Илимпаз 1978-жылы Ташкент қаласында ҳәзирги Наýайы атындағы өзбек тили, әдебияты ҳәм фольклоры институтыныңарнаўлықенесинде «Алпамыс» дәстанының қарақалпақверсиясын аттарийхый-фольклорлық характеристика (сыпатлама-У.Х.)» деген темада кандидатлық диссертациясын корғап шықты. Бул жумыста тийкарынан «Алпамыс» дәстанының пайда болығында дәреклер үрениледи ҳәм оның сюжетлери, мотивациялық өзгешеликтери Түслик Сибирь, Арқа Кавказ халықларының эпикалық дөретпелери менен салыстырылып үрениледи. Нәтийжеде, илимий ҳәм әмелій мағлыўматларға тийкарланған ҳалда биринши мәрте



дәстанның IX-X- әсирлерде пайда болғанлығы ҳаққында илимий – теориялық жуўмақлар исленилген. Кейиннен филология илимлери кандидаты Ж.Хошниязов 2018-жылы Ташкент қаласында, Наўайы атындағы Өзбек тили, әдебияты ҳәм фольклоры институтының арнаўлы кенесинде «Қарақалпақ қаҳарманлық дәстанларының пайда болыў дереклери» деген темада филология илимлериниң докторы илимий дәрежесин алыша еристи. «Ж.Хошниязов кең жәмиетшиликке қарақалпақ фольклоры менен әдебиятын, кала берсе, этнография илимин изертлеўши илимпаз сыпатында да жақсы таныс», - деп жазды филология илимлериниң докторы З.Бекбергенова [2:115]. Шайыр қосықларының дөретилийи менен жазылыў тарийхын, себебин түснедиреди, «Көкирегинде шайырлық дебдиўи бар ҳәр қандай адам сапардан илҳамланып қайтатуғыны тақыйық. Деген менен, бизиң бул сапарымыздың ойымызға түйип қайтқан сезимлеримиз өзлеримизди қанаатландырмайды», - деген сөзлер менен шайыр бул дүркін жазылыўы тарийхы-дөретилийи турулалы мағлыўматларын усы журнал бетлеринде келтирип өтеди [9:44-45]. Ҳақыйқатында да, илимпазлар сапарлардан кейин, тарийхый, илимий-тарийхый экспедициялардан соң шығармалар жазады. Демек, шайыр Н.Төрешова «Әмиүдәръя» журналында 1991-жылы 11-санында “Ким сөйлер”, “Нала”, “Өзиңнен” ҳәм “Төртликлер” атлы дөретпелерин дағазалады [8:47-52]. Усы журналда 1996-жыл 5-6-санларында «Мен ушын» қыссасы жәрияланды [8:21-29]. Б.Нурназарова поэзияда өз орнына, стилине ийе шайыр есапланады [5:160]. «Анама хат», «Анам кәбам» атлы дүркін қосықлары усы жыйнақтан орын алды. Шайыр, драматург, прозаик, журналист К. Рахманов “Илҳам әрўақлы адамларда болады” атамасында “Әмиүдәръя” журналында, 3-санда, 1999-жылы [6:74-77] өз пикирлерин көрсеткенлиги белгили болады. Сораўларға жуўаплар бере отырып, прозалық, поэзиялық ҳәм драмалық дөретпелериниң дөретилийи жөнинде айтылады, «Лаққылар емлеўханада», «О дүньяға мирәт», «Келин», «Жаралы жүреклер», «Егленген бәхәр», «Пайғамбар жасындағы күйеў» комедиясын, «Избан», «Алпамыс», «Едиге», «Ақ бултлар, қара бултлар» музыкалық драмалары жазылыўы, композиялық изленислери турулалы айтады. Театр тарийхында драматурглер К.Рахмановтың “О дүньяға мирәт”, М.Нызановтың “Еки дүньяның әүереси” шығармалары белгили болды.

## ӘДЕБИЯТЛАР

1. Ахметов С.Теориялық ҳәм әдебий-критикалық пикирлердин тереңлиги ушын.- // Әмиүдәръя, 1991, 7-сан, 106-111-бетлер
- 2.Бекбергенова З. Үмитлер кеўилди тербетип. - // Әмиүдәръя, 2007, 6-сан, 114-116-бетлер.
- 3.Мухаммед Хошан. Мәўсимлер аралығы. - Тошкент, 2021, 128 бет.
4. Мухаммед Хошан.Адам атын ардақлап.- // Әмиүдәръя, 1989, 10-сан, 58-60-бетлер
- 5.Нурназарова Б. Шексизликке қарай. - Ташкент, 2020, 160 б.
- 6.Рахманов К. Илҳам әрўақлы адамларда болады. - Мен ушын. - //Әмиүдәръя. 3-сан. 1999-жыл. 74-77-бетлер
- 7.Салимзянова Э.Ш. Творческая лаборатория Анвара Шарипова (особенности научного и литературного мастерства). - Автореф. на соискание канд.филол.наук. - Уфа, 2016, 29с
- 8.Төрешова Н. Нала. - // Әмиүдәръя, 1991, 7-сан, 47-52-бетлер. // Әмиүдәръя, 1996, 5-6-санлар, 21-29-бетлер.
- 9.Хошниязов Ж.Кешиккен жоқшылар. - әмиүдәръя, 1991, 6-сан, 43-49-бетлер. Хошниязов Ж. Қарақалпақ қаҳарманлық дәстанлары-миллий қәдириятлар дәреги. - Нөкис, Илим, 2017, 92бет.
10. Юзеев Н. Современная татарская поэтика. - Казань, 1971, 351 с.
- 11.Тұрсынов Б. Драматургиямыздың конфликт ҳәм композиция мәселелерине. - // Әмиүдәръя, 2000, 1-сан, 90-93-бетлер



“RAYMALI OG‘A VA BEGIMOY” RIVOYATIDA SEVGI-MUHABBAT TASVIRI.

Hojixonov Azizbek Sheraliyevich

Alisher Navoiy nomidagi Toshent davlat  
o‘zbek tili va adbiyoti universiteti magistranti

Telefon:+998998109454  
azamatxayrulla@gmail.com

**Anotasiya:** Maqolada Chingiz Aytmatovning asarlarida uchraydigan rivoyatlarning tahliliga chuqur e’tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada keltirilgan ikki rivoyat ikki xil g‘oyani targ‘ib etishga yo‘naltirilganligi tahlil etilgan. Edigeyning Zarifaga bo‘lgan muhabbatni va ichki kechinmalari, fojeasi muammolari tahlil va talqiniga tortiladi. Qoranor tuya, Oq moya kabi obrazlar asar badiiyatida tutgan o‘rnini masalalari tadqiq etilgan.

**Kalit so‘z:** Rivoyat, afsona, ertak, roman, sujeti, obraz, obrazlar tizimi, fujiali sevgisi, tahlil va talqin, ichki kechinma, fujia. Qoranor tuya, Oq moya obrazlar.

Chingiz Aytmatov “Nayman ona va uning manqurt o‘g‘li” haqidagi rivoyatni o‘sha davr manqurtlari hisoblanmish Kazangapning o‘g‘li Sobitjon va Abutolib Quttiboyevni imperializmga qarshi jinoyatchi deb ayblab, Kazangapning mayitini ota-bobolari dafn etilgan qabristonga ko‘mishga ruxsat bermagan chag‘irkо‘z leytenant Tansiqboyev obrazlariga “kesatiq” sifatida keltirib o‘tgan bo‘lsa, asar sujetidagi “Raymali og‘a va Begimoy” epik rivoyatini Edigey va Zarifa o‘rtasidagi botiniy sevgining hosilasiga bag‘ishlaydi. Ushbu rivoyat janr xususiyatiga ko‘ra tarixiy rivoyatlar turkumiga mansubdir.

Asarga afsona, ertak, rivoyat va sevgi qissalarini kiritishdan maqsad, birinchidan, o‘tmish bilan zamona o‘rtasida adabiy ko‘prik yaratish bo‘lsa, ikkinchidan, kitobxonni zeriktirib, toliqtirib qo‘ymasdan, uni oxirigacha o‘qib chiqish uchun qiziqish uyg‘otishdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, muallif garchi, bevosita, sevgi mavzusiga bag‘ishlanmagan asarlari, shu jumladan, “Asrni qaritgan kun” romanida ham azaliy va abadiy mavzu sevgi-muhabbat haqidagi rivoyatlarga murojaat etadi va zamonasining mashhur oqini Raymali og‘a va uning sehrli san’atiga topingan hamda uning izidan borishga qat‘iy ont ichgan oshiqu beqaror qiz Begimoy to‘g‘risidagi rivoyat vositasida insonga qanot baxsh etuvchi o‘qli muhabbatning mo‘jizakor qudratini madh etadi. Raymali og‘a haqidagi rivoyat “Asrni qaritgan kun” romani sujeti bilan uyg‘unlashib ketgan holda o‘zi mustaqil asar, go‘zal bir novella sifatida ham xarakterlidir<sup>1</sup>.

Hamma voqeа o‘z davrida xalq dushmani sifatida e’tirof etilgan Abutolib Quttiboyev va uning rafiqasi Zarifaning taqdir taqozosи bilan Bo‘ronli bekatiga kelib qolgan kunlaridan boshlanadi.

Yozuvchi Edigeyni sevimli ayolidan ayrılganini shunday chirolyi o‘xshatishlar bilan tasvirlaydiki, kitobxon ham Kazangap singari Edigey ruhiyatidagi tushkunlik holatini yurakdan his qilib, uni tushuna boshlaydi: “Edigey Bo‘ron sevimli ayolidan ajralgan o‘sha kuni shu qadar tushkunlikka tushib, umidsizlikdan tiz cho‘kdiki, hech bir qirol, hech bir imperator, hech qanday hokimi mutlaq taxti-baxtidan ajralib qolgan chog‘da ham yorug‘ dunyo qarshisida bunchalik g‘am-g‘ussa bilan tiz cho‘kmagandir?! ”<sup>2</sup>.

Abutolib Quttiboyevni so‘roq qilgani kelgan chag‘irkо‘z leytenant Tansiqboyev, uni xotiralari bitilgan, og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan rivoyatlar qayd etilgan daftari orasidan Raymali og‘a haqidagi rivoyatni o‘qib, xalq tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklarni ma’naviy buzuqlikka xizmat qiluvchi cho‘pchaklar deb hisoblaydi: “Aljib qolgan qari chol o‘n to‘qqiz yashar qizni sevib qoladi. Buning nimasi yaxshi? Bu Quttiboyev deganining dushmaninga emas, ma’naviy buzuq kishi ham ekan-ku! Bu iflosliklarni ipidan-ignasigacha yozib olganiga qara-ya”<sup>3</sup>.

Edigeyning Zarifaga bo‘lgan muhabbatni – bu hayot sinovi edi. Lekin hamma dardga vaqt davo deganlaridek, Edigey qalbidagi ushbu jarohat ham asta-sekin tuzala boshlaydi. Shunday qilib, Raymali og‘a va Begimoy haqidagi rivoyat asar bosh qahramoni Edigey Bo‘ronning ichki kechinmalari asosida vujudga kelgan rivoyat hisoblanadi. Endi rivoyat mazmuniga o‘taylik:

Raymali og‘a o‘z zamonasining dong‘i ketgan oqini (o‘zbek tilining izohli lug‘atida oqin

1 Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. Toshkent: O‘qituvchi. 2011 y. 182-bet.

2 Aytmatov Ch. Asrga tatiflik kun. Qiyomat. Romanlar. Toshkent 1989 yil 225-bet

3 O‘sma asar. 161-bet



– baxshi degan ma’noni anglatadi) bo‘lib, u yoshligini el-yurt yig‘inlarida, to’y-tomosholarda do‘mbira chertib o‘tkazdi. Unga yaratgan tomonidan ham shoirlik, ham bastakorlik, ham nafasi o‘tkir oqinlik in‘om etilgan edi. Shu tariqa umrini o‘tkazib, qarilik fasliga yetib kelganini ham anglamay qoladi. U mol-dunyo yig‘may, boshini ikki qilmay yashadi. Qariganda uni kichik ukasi Abdilxon o‘z qaramog‘iga oldi. Raymali og‘a esa endi faqat qarilik, oxirati to‘g‘risida o‘ylaydigan bo‘lib qoladi. Agar o‘sha to‘yda Begimoyni uchratmaganda umrining qolganini ham shu tariqa osoyishta o‘tkazgan bo‘larmidi? Begimoy endigina o‘n to‘qqiz yoshga to‘lgan, ovozining sehri Raymali og‘adek otin bilan bahslashishga qodir juvon. Raymali og‘a taklif qilingan ma’rakaga Begimoy ham ishtirok etadi. Qari otin o‘tirgan davraga Begimoy do‘mbirasini qo‘ltiqlagancha kirib, o‘z uzrini aytib, yuragidagi sevgi izhorlarini kuy-qo‘sinqorqali Raymali og‘aga yetkazadi. Raymali og‘a undan kimligini so‘raganda qiz shu tarzda o‘zini tanishtirib ketadi: Yoshligidan Raymali og‘ani sevishini, uning ortidan izma-iz yurib kuy va qo‘sinqularini yod olganini, tezroq ulg‘ayib visol lahzalarini kutganini qo‘sinq bilan hirgoyi qiladi. Shu tariqa ular orasida qo‘sinq aytishuvi boshlanib ketadi. Begimoy qari oqinning yuragiga chug‘ soladi. Endi esa Raymali og‘aninig soch-soqolidagi oqlar ham sevgisiga halal berolmasdi. Raymali og‘a Begimoyni shu paytgacha uchratmagani, qariganda uning diydoriga erishib, ovozini eshittirib azobli rohatga duchor etgani – bularning barchasi tangrining qasosidan deb biladi.

Rivoyatda Raymali og‘a hayoti fojia bilan yakun topadi. Raymali og‘aning fojiali sevgisi o‘sha qabila an‘analarini, urf-odatlarini oyoq osti qilish bilan barobar edi. Ular Raymali og‘ani esini yeganlikda, behayolikda va jinnilikda ayblab, to‘ylarda sang‘ishni, Begimoy bilan hayosizllarcha ko‘ylashni bas qilishini talab qilishadi. Ular Raymali og‘aning qobiliyatini “do‘mbirani qornini qashlab masharabozlik qilish” deb kamsitishadi. Uning qo‘sinqqa bo‘lgan muhabbatini esa “birovlarining ko‘nglini xushlash” deb mashara qilishadi. Raymali og‘a aytganidek: “Axir ko‘y quyilib kelsa, kuylamoqning nima aybi bor? Hayot menga umr shomida sevgi hadya etgan bo‘lsa, sevmoqning nima uyati bor? Bu dunyoda sevishganlar baxtiyorligidan ham ortiq narsa bormi? Modomiki, sizlar kechikib topgan sevgim quvonchini tap tortmay kuylaganim uchungina meni telbaga chiqarayotgan bo‘lsalaringiz, unda sizlardan yuz o‘girganim bo‘lsin! Olam keng, kunim sizlarga qolgan bo‘lsa, boshim oqqan yoqqa ketaman. Hoziroq Saralaga minaman-da, sevgilimga boraman yoki bo‘lmasa ko‘y-qo‘sinqlarimiz-u fe’l-atvorimiz bilan sizlarni bezovta qilmaslik uchun u bilan birga boshqa o‘lkalarga bosh olib ketamiz”<sup>1</sup> deydi. Lekin Raymali og‘aning ukasi Abdilxon avval uning ijod ilhomni bo‘lmish do‘mbirasini sindirib tashlaydi. So‘ngra uning “ajralmas hamrohi, hammaga ma’lum va mashhur” Sarala nomli otini bo‘g‘izlab, yerni issiq qonga bulg‘aydi va akasini sevimli yori visoliga erishishiga to‘sinqlik qiladi. Abdilxon singari eskilik sarqiti bilan yashaydigan qabila a‘zolari ham tor doiradagi eski urf-odatlar deb Raymali og‘aning qalbida kech nish urgan sevgi alangasini so‘ndirmoqchi bo‘lishadi. Raymali og‘a esa tor milliy an‘analar zanjirini uzib, haqiqiy sof muhabbat sari dadil isyon ko‘tarishga tayyor edi. Ushbu rivoyat qo‘sinq orqali qalblari tutashgan ikki oshiqning sof, pokiza muhabbatini va qaynoq sevgisini tarannum etgan rivoyat hisoblanadi. Rivoyatda faqatgina Raymali og‘a va Begimoyning qo‘sinqlaridagina emas, balki rivoyatning har bir satridan muhabbat kuyi, chin insoniy histuyg‘ular ashulasi yangrab turgandek tuyuladi. Bu kuy hamma-hammani: tuyda yig‘ilgan yosh-u qarini, piyodayu suvoriyini ham o‘ziga maftun etadi. Raymali og‘aning kuylagan qo‘sinqlari go‘zal hayot uchun, chinakam insoniy baxt uchun mardonavor kurashga da’vat etadi. Hayot go‘zalligi bo‘lmish otning o‘ldirilishi va do‘mbirani sindirish faqatgina qalbi insoniylik tuyg‘ularidan yiroq bo‘lganlarningina qo‘lidan keladi. Do‘mbirani sindirib, Saralani o‘ldirib, Raymali og‘ani o‘zini esa qayin daraxtiga bog‘lab qo‘yishadi. Raymali og‘a ukasi Abdilxon tomon yuzlanib birdan kuylab yubordi: “So‘nggi zulmat – barin olib tun ketar, tong bo‘zarib yana yorqin kun kelar. Biroq, mening yorug‘ kunim qorong‘u. Badbaxt inim, Abdilxon, sen quyoshim o‘chirding, yorug‘ kunim tun etding. Yoshim qaytib, rabbim menga sevgi ato etganda, dilbandimdan judo etib, motamsaro gerdaying, quvonchingning boisi ham shundadir. Ammo sho‘rlik inim Abdilxon, qalbim urishdan to‘xtab, nafasim chiqmay qolgunga qadar qanday sevgi bilan band bo‘lib, qanday sevgi bilan yashayotganimni bilganingda edi! Sen meni daraxtga bog‘lab tashlading, biroq men bu yerda emasman, ukam, Abdilxon. Bu yerda jismimgina bandi, xolos, jonim – dilim esa sabo kabi keng dalani quchib, yomg‘ir kabi yerga singib ketmoqda. Men har lahzada u bilan birga, uning qoni, tandagi joni bo‘lib yashayman. Subhidamda noz uyqudan turganda yovvoyi kiyik



kabi tog‘dan sakrab tushaman va uning xiromon qadamlar bilan o‘tovdan chiqishini kutib qoyada intizor bo‘lib turaman. Dilbarim kechuvdan o‘tmoqqa chog‘lansa, ot choptirib suv kechsa, men uni lovvullagan yuzlariyu qo‘llariga tuyoq ostidan otilib chiqqan tomchilar bo‘lib sachrayman. Dilbandim ko‘ylaganda men uning dilbar qo‘shtig‘i bo‘lib yayrayman”<sup>1</sup>.

Shunday qilib, Raymali og‘ani tanasi daraxtga bog‘langan bo‘lsa-da, qalbi yor visoliga erishadi, ular ruhan topishadilar. Raymali og‘aning sevgisi shu tariqa fojia bilan yakun topadi.

Asarda keltirilgan ikki rivoyat ikki xil g‘oyani targ‘ib etishga yo‘naltirilgan. Birida vijdonsiz junjanglar tomonidan manqurtga aylantirilgan yigitning qismati yoritilsa, ikkinchisida qari otin Raymali og‘a va endigina o‘n to’qqizni qoralagan Begimoyning fojiali muhabbat tarannum etiladi. Bundan tashqari asarda ramziy ma’no tashigan jonivorlar hamda asar qahramonlari va insoniyatning do‘sti sifatida tarannum etilgan Qoranor tuya, Qoplon iti (Yo‘lbars), Oq moya kabi obrazlar asar badiiyatida asosiy o‘rinni egallaydi. Keltirilgan jonivorlar obrazi asarning poetic qimmatini oshirgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. ytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Qiyomat. Romanlar. Toshkent 1989.
2. Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. Toshkent: O’qituvchi. 2011.
3. Dementev V. Zdravstvuy, Tanaboy!// Literaturnaya gazeta. 1966-g, 7-iyun.
4. Aliyeva D. Yozuvchining poetik olami. Jahon adabiyoti. 1998 y.12-son. 174-b.
5. Mirzaahmedova P. Davrimiz allomasi. Jahon adabiyoti jurnali. 2004 yil. Mart soni
6. Мирзаахмедова П. Национальная эпическая традиция в творчестве Ч.Айтматова. Дисс. канд.фил.наук. М., 1981 г
7. Salomov G‘. “Oq kema”ni o‘qib. “Sovet O‘zbekistoni” gazetasi. 1972-yil, 14-may.

1 Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Qiyomat. Romanlar. Toshkent 1989 yil 240-bet



## ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

**Mamatov Shavkat Muyassarovich,**

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani

17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: 998 93 350 06 69

**Qilicheva Zulayxo Ne’matillo qizi,**

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani

17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: 998 97 263 09 91

**Annotatsiya:** Maqolada Abdulla Avloniy asarları haqida qisqacha ma'lumot berilgan va adib tomonidan ilgari surilgan g'oyalarning barkamol inson kamolotida muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Besh kitob, darslik, alifbo, axloq, odob, ilm, ibratomuz, she'r, hikoya, masal, qissadan hissa, purma'no fikrlar, farzand tarbiyasi, ijodiy meros.

XIX asr oxiri XX asr boshidagi o‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakil-laridan biri ma‘rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, pedagog Abdulla Avloniy o‘z xalqini ilm-fan nurlaridan bahramand qilishni o‘zining fuqoralik burchi deb biladi. Abdulla Avloniy 1904-yildan umrining oxiriga qadar o‘qi-tuvchilik qildi. U ko‘lab she’rlar, maktablar uchun darslik va qo’llanmalar yaratadi, dramatik asarlar ijod etdi. O’sha davr xalq pedagogikasini rivojlantirishda Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” kitoblari katta rol o‘ynaydi. Pedagog-olimning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” deb nomlangan besh kitob-dan iborat bo‘lgan darsligi hurmatga sazovordir. Abdulla Avloniy bu darslikda xalqni maorif-madaniyatga chorlaydi, yaramas xulq- atvori kishilarni esa tanqid qiladi.

Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” -“Alifbe“, “Ikkinchi muallim“ - “O‘qish“ kitobi rolini bajardi. U “Birinchi muallim“da dastavval 32 harfning alohida yoziladigan shakllarini alifbo tartibida bergen. Shu sahifada alifning so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida qanday yozilishini ko‘rsatgan, so‘ng alifni barcha “bosh harflar”ga qo‘sib, bo‘g‘inlar hosil qilgan.

“Ikkinchi muallim“da axloq-odobga, halollik va poklikka oid turli she'r, hikoya, masal va ertaklarni jamlab, rang-barang majoziy obrazlardan ustalik bilan foydalangan. Kitob “Maktab“ she’ri bilan boshlanadi. Unda kimki maktabda o‘qisa, savodxon bo‘lsa, juda ko‘p narsalarga erisha olishi, chirolyi misralarda ifodalanadi:

Maktab dur-u gavhar sochar,

Maktab sizga jannat ochar,

Maktab jaholatdan qochar,

G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!...

Darslikda shunga o‘xshash ibratomuz she'r, hikoya va ertaklar ham bir talay.

Abdulla Avloniy “Maktab guliston“ , “Turkiy guliston yoxud axloq“ kabi darsliklari bilan o‘zbek bolalar adabiyotiga poydevor qo‘ydi. “Turkiy guliston“da

Abdulla Avloniy o‘zining ijtimoiy va axloqiy qarashlarini yoritadi. Darslikdagi har bir bo‘lim ta’lim-tarbiyaning muhim bir masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning biri ikkinchisini to‘ldiradi, takomillashtiradi. Har bir bo‘limda kichik hajmli, ibratli hikoyalar berilib, asar oxirida she’riy parchalar yoki hikmatli so‘zlar orqali “qissadan hissa” chiqariladi. Yozuvchi bu asarida xalq og‘zaki ijodidan keng foydalangan.

Jumladan, “Yamonoqliq jazosi” hikoyasida Qosim doim yomon ishlani qiladi. Ko‘chadan uyiga ust-boshini yirtib keladi, onasining mehmonlar uchun olib qo‘yan taomini yeydi-da, onasi taomni kim yeganligini so‘raganda mushukning bo‘yniga qo‘yadi. Shunday qilib Qosim uyidan pul o‘g‘irlaydi, bu o‘g‘rlikda onasini ayblaydi. Oxiri bir kuni otasi tangani Qosim olganini ko‘rib, uni tutmoqchi bo‘ladi, shu vaqt Qosim tangani yutadi. Tanga esa Qosimning halqumiga tifilishi tufayli u jon beradi. Adib qissadan hissa sifatida “...yamonning yamonligi o‘z boshiga yetdi”, - degan naqlni keltiradi.

Adibning ko‘plab hikoya va masallarida bayon etilgan voqelik “qissadan hissa” chiqarish xulosasi mazmunan xalq maqollariga mos keladi. “Ilm” hikoyasidagi “Ilm bir daryo, ichi to‘lmush dur-u gavhar bilan, Qiymat-u qadrin qachon bilg‘ay ani johil ilan”, “Qanoat” hikoyasidagi “Qanoatsiz



kishi bag‘rini dog‘lar, Qanoatli kishi og‘zini yog‘lar”, “Yaxshilik yerda qolmas” masalidagi “Yaxshilik qilsang, bo‘lur joning omon, Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon”, “Yaxshi so‘z birlan ilon indan chiqar, So‘z yomon bo‘lsa, pichoq qindan chiqar”, “To‘g‘rilik” hikoyasidagi “To‘g‘rilalar jannatning ayvonidadur, O‘g‘rilalar ranj-u alam konidadur”, “Ittifoq” masalidagi “Ittifoqa kuch-quvvat kor aylamas, Ittifoqa jin ham ozor aylamas”, “Bolari va pashsha” masalidagi “Mehnat oxiri rohat, yalqovlik oxiri xorlikdur” kabilar fikrimizning yorqin dalilidir.

Ma’rifatparvar bobomizning asarlari ona-vatan, ilm, ona tili, odob-axloq haqidagi: “... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitur...”, “Inson tafakkurining quvvati va kengligi avvalo muallim tarbiyasiga bog‘liq”, “Har bir millatning dunyoda borligini ko’rsatadurg‘on oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo’qotmak millat ruhini yo’qotmakdir”, “Badanning salomat va quvvatlri bo’lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o’qimoq, o’qitmoq, o’rganmoq va o’rgatmoq uchun insonga kuchli kasalsiz jasad lozimdir” kabi purma’no fikrlaridan barkamol insonni voyaga yetkazishda ibrat namunasidir.

Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u jamiyat, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan buyuk ijtimoiy ishdir. U shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog‘liq. Abdulla Avloniy so‘zлari bilan aytganda, “Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidur.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o’zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham yurtimizda buyuk pedagogning ijodiy merosini chuqur o’rganishga e’tibor qaratilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz.//Toshkent - 2017, «O’zbekiston».
2. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so’zi”, 2017-yil 4-avgust . O‘qish kitobi. 3-sinf uchun.- Toshkent
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.(Latif Xalilov tahriri ostida) T.2017-y.
- 4.N. Abdulahatov, O.Abbubakirova “Aliomalar to,,g,,risidagi asotirlar” Farg‘ona 2012-y.



## HAMZA IJODI TO'G'RISIDA MANBALAR

Raximova Dilnoza

Shovot tumani 45-son maktabi o'qituvchisi

Qutliyeva Manzura

Shovot tumani 45-son maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Hozirgi foydalanayotgan adabiyot darsliklarida H.H Niyoziyning tarjimai holida aks etgan uning tabiatiga xos xususiyatlar, ma'rifatga, ilm olishga bo'lgan intilishlari haqidagi ma'lumotlar va shoirning she'rlaridagi badiiy vositalar haqida ma'lumotlar kamligi uchun ushbu maqola bu boradagi ma'lumotlarni o'quvchiga to'liq yetkazishda foydasi tegsa ayni muddao.

**Kalit so'zlar:** teatr,rejissor,Nihoni g'azal,jadid,

XX asr o'zbek adabiyotining oyoqqa turishi, har tomonlama rivojida Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Avloniylar kabi Hamza Hakimzoda Niyoziyning ham beqiyos o'rni bor, chunki olingen zamondoshlari qatori Hamza millat erki ma'rifati, ma'naviyati va axloqiy qadriyatlari yo'lida umrini va ijodini boshladi. Bor-yo'g'i qirq yil yashagan bu fidoyi ijodkordan 5 jildlik adabiy meros qolganining o'ziyoq, Hamza shaxsiyati va uning ijodiy ishga naqadarjiddiy yondashgani to'g'risida yorqin tasavvur beradi. Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yiming 6-martida Qo'qon shahrida.tabib oilasida tavallud topgan. Uning otasi Ibn Yamir Xolboy o'g'li davrining mashhur tabiblaridan bo'lgani tufayli yozuvclii o'z taxallusiga Hakimzoda nomini qo'shgandi. Adibning onasi Jahonbibi ham tabobatdan yaxshigina xabardor ayol edi. Hamza 1896-1908-yillarda tengdoshlari qatori eski maktabva madrasalarda ta'lim oladi, arab, fors, turk tillarini o'rganadi. 1909- yildan esa Kogon shahridagi matbaa korxonasida ishlay boshlaydi. Hamzaning keyingi mehnat faoliyati o'lcamizning turli hududlarida, har xil vazifalarda kechgan. U Qo'qondagi rus-tuzem maktabida o'qituvchi, ««Kengash»» va ««Huniyat»» jurnallarida muharrir (1917), Farg'ona viloyati madaniy-maorifbo'limidaxodim (1918) teatr truppasida rejissor (1919), muhtojiar uchun ochilgan maktabda mudir (1920), Buxorodagi teatr truppasida rahbar (1921), Xorazm viloyatidagi madaniy-ma'rifiy muassasalarda mudir (1921- 1924) vazifalarida ishlaydi, xalqning turmush sharoiti, o'y-fikrlari bilan yaqindan tanishadi. U 1926-yilda birinchilardan bo'lib O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoniga sazovor bo'ladi va o'sha yildan e'tiboran erkin ijod bilan shug'ullanishga o'tadi. Qo'qon adabiy muhiti ta'sirida o'sgan Hamza juda yoshligidan she'rlar mashq qilishga kirishgandi. U 1905-yildan boshlab yozgan 214ta she'rin ijamlab, 1914-yilda ««Devoni Nihoni»» nomli qo'lyozma devon tuzadi. Demak, Hamza dastlabki asarlarida ««Nihoni»»- pinhon, yashiringan degan taxallusni qo'llagan. ««Devoni Nihoni»»dan ishqiy g'azallar bilan birga mazlum xalq ahvoliga achinish, uning og'irini yengil qilish yo'lidagi yosh qalb urinishlari ham o'z aksini topgandi. Hamza o'lka ma'rifatparvarlik harakatining oldjabhalarida faoliyat ko'rsatdi. U kambag'al oila farzandlari, yetim bolalar uchun Qo'qon va Marg'ilonda maktablar tashkil qildi, bu maktablarga qo'llanma sifatida o'qitish uchun ««Yengil adabiyot»», ««O'qish kitobi»» (1914), ««Qiroat kitobi»» (1915) singari darsliklar yozib berdi. Zamonasining mashhur nashrlari «Sadoi Turkiston»», «Sadoi Farg'ona»» singari gazetalarda Hamzaning ma'rifatparvariik ruhidagi o'nlab publisistik maqolalari chop etildi. Mazkur maqolalarda adib hayotning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolarini dadil ko'tarib chiqди, ularni hal etish yo'llarini izladi. Jumladan, ilg'or Yevropa xalqlari dunyoviy ilm-fanga katta ahamiyat qaratishi evaziga turmushning barcha jabhalarida fuqarolari hayotini yengillatish, jahon bozorlarini tobora ko'proq egallash yo'lidan ketayotgan bir paytda, Turkiston xalqlari diniy jaholat, ma'rifsizlik, fikriy tanballik botqpg'iga botib yotganini kuyinib yozdi. Hamzaning tarjimayi holida yozishicha, yoshlik kezlarida unda she'riyatga havas bilan birga musiqiy tuyg'u ham uyg'ongan. U o'zidagi ana shu tuyg'u talabi bilan o'tgan asrning 10- yillarda Farg'ona vodiysi, hatto Qashqarda keng tarqalgan ashulalarni o'zbek va tatar xalqlarining musiqiy folklori namunalarini yozib olgan. Ulardagi yengil-yelpi, mazamatrasiz so'zlar o'rniga yangi she'rlar yozib, bu she'rlarni shu ashulalarning kuylariga tushirgan. Shoir 1915-1917- yillarda yozgan shunday she'rlarini jamlab, ularni "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi" degan umumiyy nom ostida 8 ta to'plam e'lon qilgan va bu to'plamlarni turli gullarning nomlari bilan atagan ("Oq gul", "Qizil gul" kabi). O'tgan asrning 10- yillardagi eng katta madaniy voqeа milliy teatrning tug'ilishidir. M. Behbudiy "Padarkush" dramasi bilan yangi san'at turiga asos solib, ko'plab shoir va yozuvchilarning dramaturgiyaga kirib kelishlariga



sababchi bo'ldi. Hamza ham 1914-1915- yillarda dramaturgiya bilan astoydil qiziqib, "O'ch", "Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari" singari sahna asarlarini yozdi. Teatrning xalqqa katta ta'sir ko'rsatuvchi san'at turi ekanini sezgan shoir keyinchalik, hatto teatr truppalarini ham tashkil etib, O'zbekistonda teatr san'atining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Hamza ijodining birinchi bosqichida, yuqorida tilga olingan pyesalaridan tashqari, "Mulla Normuhammad domlaning kufr xatosi", "Ochlik qurbanlari" (1916), "Rabochiy" (1917), "Ishchilar hayotidan", "Muxtoriyat yoki avtonomiya" (1917), "Boy ila xizmatchi", "Kim to'g'ri?", "Tuhmatchilar jazosi", "Loshmon fojiasi" (1918), "Qizil qon ichida yosh gavdalar" (1919) sahna asarlarini ham yaratdi. Shu o'rinda aytish joizki, Hamza "o'zbek sovet adabiyoti va teatrining asoschisi", deb e'lon qilingan yillarda uning "Boy ila xizmatchi" pyesasi sotsialistik realizm metodining sinfiylik va partiyaviylik tamoyillariga moslab qayta ishlandi va bu asar uzoq davrlar mobaynida o'zbek dramaturgiyasining Shoh namunasi sifatida talqin etib kelindi. Holbuki, Hamzaning o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi uning "Zaharli hayot", ayniqsa, "Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi" (1926) va "Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi" (1927) singari badiiy yuksak asarlari bilan belgilanadi. Hamza 20- yillarda dramaturgiya sohasida samarali ijod qilib, to'rt qismdan iborat "Farg'ona fojalari" (1918-1920), "Eshonlikka xiyonat" (1920), "Burungi saylovlar" (1926), "El quzg'unlari", "Jahon sarmoyasining oxirgi kunlari" (1927) Singari pyesalarini yozdi. Bu pesalar davrning dolzarb, ammo o'tkinchi mavzulariga bag'ishlanganligi sababli Hamzaning eng yaxshi asarlari darajasiga ko'tarilmadi. Chunonchi Hamza shu davrda sovet davlatining targ'ibot mashinasi tarqatgan jahon inqilobi haqidagi yolg'on fikrlarga uchdi hamda so'nggi pyesasida kapitalizmning yemirilishi va sotsializmning jahon miqyosida tantana qozonishini tasvirlashga urindi. Umuman, 20- yillarning o'rtalaridan boshlab, o'zbek yozuvchilari sovet davlati siyosatiga moslashib shu siyosat ta'sirida ijod eta boshladilar. Lekin Shunga qaramay, masalan, Hamza 1926-1927- yillarda "Maysaraning ishi" va "Paranji sirlari" kabi o'zbek dramaturgiyasini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiquvchi asarlarni yaratdiki, shunday asarlar tufayli uning sovet davridagi ijodi ham katta badiiy qimmatga egadir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Q Yo'ldoshev, B Qosimov, V Qodirov, J Yo'ldoshbekov 7-sinf adabiyot darslik "Sharq" nashriyoti 2017
- 2.Hamza."To'la asarlar to'plami",4-jild, T.: "Fan" 1989-yil
- 3.Quronov M " Tarixiy haqiqatni qaror toptirish". "Xalq so'zi" gazetasi,2014-yil 23-avgust,163-son
4. Internet saytlari.



## Т.МӘТМУРАТОВТЫҢ «САДЫҚЛЫҚ» ПОЭМАСЫНДА КӨРКЕМ СҮҮРЕТЛЕҮ УСЫЛЛАРЫ

Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич

ЎзР ФА Қоралпогистон бўлими

Қорақалпоқ гуманитар фанлар

илмий-тадқиқот институты, катта илмий ходим

Телефон: (+99891 301-73-13)

ssayimbetov@mail.ru

**Аннотация:** Мақалада Т.Мәтмуратовтың «Садықлық» поэмасының идея-тематикалық ҳәм көркемлик өзгешеликлири поэмада қолланылған сүүретлеү усыллары тийкарында ашып берилген.

**Калит сўзлар:** Идея-тематика, лирикалық-психологиялық сүүретлеү, хат усылындағы сүүретлеү, лирикалық элемент, авторлық нийет.

XX әсир екинши ярымы қарақалпақ әдебиятында поэма жанрының раўажланыўына Т.Мәтмуратов «Садықлық» (1970) поэмасы менен айрықша үлес қосты.

Т.Мәтмуратовтың «Садықлық» поэмасында өмир шынлығын сүүретлеүде жеке шахс тәғдири, оның руўхый дүньясы, психологиялық кеўил-кеширмелери баслы планға шығарылып, онда автор нийетине бола, лирикалық сыпатларға көбирек көркемлик функциялар жүкленген. Поэманиң идея-тематикасында екинши жәхән урысының адамзат өмирине алып келген аўыр трагедиясы Гүлзийба образы арқалы ашып бериледи. Шайыр усы бас қаҳарманның урыста мәртлерше қаза тапқан қостары Қунназарды келеди деп көп жыллар күтип, айралық дәрти менен оған садық болып жасағанлығын, психологиялық кеширмелер тийкарында сүүретлейди. Көркем сөз ийеси еринен айрылған ҳаялдың руўхый дүньясын еле де тереңирик ашып бериүде ишкі монологлық сүүретлеўлерден шеберлик пenen пайдаланған. Мәселен:

«Брастан-ақ сум әжелден,  
Түўры хабар келгени ме?  
Ярымнан қалай безермен,  
Исенбеймен өлгенине.

...Өлди дейин десем тағы,  
«Келемен» деп айтқаны бар.

Улken ұмит, ұлken мәни –  
Жазылған көп хатлары бар...» [2, 124-125]

Усылайынша, шайыр поэмада Гүлзийбаның ишкі дәртлерин монологлы усылда көркем сүүретлеүге кең орын ажыратады. Гүлзийбаның руўхый дүньясынан кешип атырған психологиялық ой-сезимелери поэманиң ишкі қурылышында лирикалық элементлердин күшетиүин тәмийинлеген. Шайыр қаҳарман психологиясын ашып бериў барысында өз қәлбиндеги күйиниш сезимлерин де коса сүүретлейди. Мәселен:

Яр дийдарын көрсем дейип,  
Көз алдына келтиреди...  
«Адамзатты адам сүйип,  
Адам неге өлтиреди?!»... [2, 133]

Усындай поэма ўақыяларына шайырдың қатнасы менен лирикалық сыпат және де арта туғаси.

Шығармада шайыр тәрепинен утымлы қолланылған көркем формалардан бири, хат түриндеги сүүретлеү болып табылады. Поэмада Гүлзийба урысқа кеткен ери Қунназарды үлкен ұмитлер менен күтип, оннан қуянашлы хабарды тек хат арқалы билип жүреди. Әсиресе, поэмада шайыр Қунназардың Гүлзийбаға «мени күт», әлбетте, «қайтаман» деген ұмит байлаўши сөзлери менен бирге, Гүлзийбаның да ишкі руўхый дүньясынан кешип атырған сезимлерин хат усылында исенимли сүүретлеген. Әлбетте, бундай сүүретлеўлер поэмада лиризмди және де күшетиүге өз тәсириң тийгизген.

Гүлзийба өмирлик жолдасының берген ўәделери бойынша ұмити оғада артып, оның



ишки кеўлинде ярының жеңис пенен аман келетуғынлығына үлкен исеним пайда болады. Кунназардың жазған хатларын оқып, кеўли көтерилген Гұлзийба қостары келемен дегенше жайын ақлап қойыў мақсетинде район орайына ҳәк алыў ушын барады. Сонда бул жерде жайласқан әскерий бөлімнен тосаттан күйеўинин батырларша каза тапқанлығы ҳаққында «қара қағаз» алады. Соның менен, Гұлзийбаның үмитлери қайғыға айланады. Поэмада бул «қара қағаз» көркем деталь хызметин атқарып, ол хаялдың ишки кеўлинде кешкен психологиялық конфликттиң келип шығыўын тәмийинлейди. Гұлзийба бул қағазды алыўы менен оның кеўлиндеги үмитлер – орны толмас дәртлерге, әрманларға айланады. Яғный, қыз кеўлинде жарқын үмит пенен дәртли сезимлер қарама-қарсылыққа ушырайды. Деген менен, Кунназардың «күт мени, қайтаман» деп жазған хатлары, қала берсе, олардың арасында қалған перзент, ҳаял кеўлине үлкен жубаныш болып, Кунназарды еледе күтип жасаўға талпындырады. Солай етип, поэмада қаҳарманның ишки психологиялық кеширмелери бириńши планға өткерип сүўретленеди.

Улыўма жуўмақластырып айтқанда, Т.Мәтмуратов «Садықлық» поэмасының идея-тематикасында екинши жәхән урысының адамзат өмирине алып келген аўыр апатшылығын, өмирлик жолдасынан айрылып, оған бир өмир садық қалған Гұлзийба образы арқалы лирикалық-психологиялық усылда ашып берген. Әлбетте, бул усыл поэмада лирикалық сүўретлеўдин күшейиўине унамлы тәсир жасаған.

### ӘДЕБИЯТЛАР:

1. Ахметов С. Қарақалпақ совет поэзиясы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988.
2. Мәтмуратов Т. Ашылысыў (Қосықлар ҳәм поэмалар). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977.
3. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – Москва: Просвещение, 1971.



## GRAMMATIK MAVZULARNI O‘QITISH METODIKASI

**Bozorova Gulnora Mustafoyevna**

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

4-maktab o‘zbek tili o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ta’lim uzoq davom etadigan jarayon bo’lib, uning sifati darsda qo’llanilgan metodlarga bog’liq. Mazkur tavsiyada o‘zbek tili darslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlardan namunalar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Intefaoi metodlar, innovatsion texnologiya, “Charxpalak” texnologiyasi, “Taqdimot”, “Tanolash ixtiyoriy, bajarish majburiy”, “Imkoniyat” usullari.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o’z navbatida o‘quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobji o’zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko’pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog’liq.

Har bir darsni o’ziga xos usul asosida o’tish, o’quvchining fanga bo’lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg’otish o’qituvchining mahoratiga bog’liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli.

Ko’p yillar davomida an’anaviy dars o’tish ta’limning asosiy shakllaridan biri bo’lib keldi. An’anaviy darsda o’qituvchi faol, o’quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o’quvchining mustaqil fikrashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to’sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan’anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o’quvchilarining qiziqishini orttirib, ularning o’quv jarayonidagi faolligini ta’minalashni taqozo etadi.

Ta’lim uzoq davom etadigan jarayon bo’lib, uning sifati darsda qo’llanilgan metodlarga bog’liq. Darsning mazmunli o’tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o’qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to’g’ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o’qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o’tishni talab etadi. Buning uchun o’qituvchi doimo o’z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo’lishi va o’z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim.

### Quyida bir qanchasini taqdim etamiz:

**“Konseptual jadval” usuli.**  
Bunda to’ldiruvchining o’ziga xos xususiyatlari olib beriladi.

Gapning biror bo’lagini(ko’pincha, kesimni) to’ldirib kelgan ikkinchi darajalni bo’lak to’ldiruvchi deyiladi.

Ta’riflar	Namuna	Xususiyatlar
1. Agar to’ldiruvchi tushum kelishigi qo’shimchasi –ni bilan ifodalansa, vositasiz to’ldiruvchi deyiladi.	<b>-kitobi o’qimoq</b> <i>Dilshod xatni xolasiga berdi</i>	Ular kimmi? nimani? so’rog’iga javob bo’ladi. <b>Vositasiz to’ldiruvchi belgili va belgisiz</b>
2.Jo’nalish, o’rin-payt, chiqish kelishiginigina oлган so’z kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim uchun? nima uchun? kim haqida? nima haqida? kim bilan? nima bilan? kabi so’roqlarga javob bo’ladiganlarni vositali to’ldiruvchilar deyiladi.	<b>-Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas.</b>  <b>-Bu kitobni ukam uchun oldim.</b>	Vositali to’ldiruvchilar uchun, orqali, to’g’risida ko’makchilar bilan birga kelgan so’zlar orqali ham ifodalanadi.



**“Tanlash ixtiyoriy, bajarish majburiy” usuli.** Bunda o’quvchilar darslikdagi mashqning shartida keltirilgan topshiriqlarni o’zi ixtiyoriy ravishda badiiy asar, boshqa darsliklardagi matn, materiallar asosida bajarishlari kerak. Natijada o’quvchilarda mustaqil o’qib o’rganish, o’zining qiziqish va qobiliyatlarini namoyon qila olish ko’nikmalar shakllanadi.



**“Imkoniyat”** usulida chorak yakunida o’zlashtirishi yuqori bo’lgan o’quvchilarga o’rganilgan mavzular bo’yicha javobi tanlanadigan va javobi yoziladigan testlar tuzib kelish topshiriladi. Bu vazifani a’lo darajada bajargan o’quvchilar yakuniy nazorat ishlarini topshirishdan ozod qilinadi. Test tuzgan o’quvchilarda test yechgan o’quvchiga nisbatan quyidagi ko’nikmalar shakllanadi:

- o’z fikrini yozma tarzda izchil, aniq, tushunarli bayon qila olish;
- mavzudan kelib chiqib savollarga javob berish va o’zi ham savollarni mantiqan to’g’ri qo’ya olish kabilari.

“TOPQIRLIK BAHSI” usuli		
T/r	Vositali to’ldiruvchi	Vositasiz to’ldiruvchi
1	baxt-saodati uchun	ta’lim sohasini
2		
3		
4		
5		

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalshtirish. T., “Iqtisodiyot”, 2012.
2. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018-yil



## O’ZBEK XALQ DOSTONLARIDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.

**Ismoilova Muborak Karimberdiyevna**

Toshkent shahar Yashnobod tumani 206-maktab

Ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Telefon:+998909772766

Muborak87@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O’zbek xalq dostonlarida vatanparlik fazilatlarining bugungi kundagi ahamiyati o’rganilgan. Bundan tashqari dostonlarning turkumlari,vatanparlik fazilatlarini o’zida namoyon etgan doston qahramonlarining doston lavhasidagi gavdalanishi muhokama etilgan.

**Kalit so’zlar:** O’zbek xalq durdonasi, doston, baxshi, noma, urf-odat, an’ana, vatanparlik, ishonch

O’zbek adabiyoti boy tarixga ega, chunki adabiyot bu xalqning mulkidir. Asrlar davomida adabiyot orqali ko’plab asar, hikoya, qissa va dostonlar o’rganilib, avloddan avlodga meros bo’lib o’tib kelmoqda.

O’zbek xalq dostonlari o’zining realligi va urf-odat, an’analarning hozirgi kungacha saqlanib etib kelishi bilan o’ziga xosdir.

O’zbek xalqi merosida dostonlarning bir qancha turkumlari mavjud. Masalan, «Go’ro’g’li» dostonlar turkumida qirqdan ortiq to’la tugallangan, mustaqil ijro etilgan ishqiy-romantik dostonlardan biridir, unda didaktik mavzu alohida ahmiyat kasb etadi. O’zbekistonda «Algomish», «Avazxon», «Kuntug’mish», «Ravshan», «Oshiq G’arib» kabi dostonlar keng tarqalgan. Dostonlarni avloddan-avlodga og’zaki an’anada etkazib kelayotgan, shoirona va musiqa ijrochilik qobiliyatlari bilan har bir doston ijrosiga yangicha tus bag’ishlab kelayotgan shaxslar xalq orasida **baxshi** deb nomlanib, ma’lum mактаб sohibi bo’lmish dongdor ustoz namoyandalardir. O’zbek xalqining mashxur baxshilar: Ergash Jumanbulbul o’g’li, Fozil Yo’ldosh o’g’li, Po’lkan shoir, Abdulla shoir va boshqalardir.

Doston o’zbek xalq folklorligining keng tarqalgan yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma’naviy-maishiy qiyofasi, siyosiy qarashlari, axloqiy estetik tarbiya, adolat va xaqqoniyat, ozodlik va tenglik, qaxramonlik va vatanparvarlik haqidagi g’oya, fikrlari bilan chambarchas bog’liqdir.

«Doston» so’zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta’rif va maqtov kabi ma’nolarda qo’llaniladi. Adabiyotda adabiy atama sifatida u, xalq og’zaki ijodining maxsuli bo’lmish, yirik hajmli epik asar hisoblanadi.

O’zbek dostonlari boshqa xalqlar kabi faqatgina epik she’riy asargina bo’lmasdan, ularda nasr ham muhim o’rin tutadi. Syujet (voqealar rivojida) voqealarning borishini tasvirlovchi nasriy, ya’ni proza qismi janglar mazmuni, tabiat go’zalliklari, u yoki bu obrazning alohida e’tiborga loyiq fazilat va xislatlarini tasvirlovchi poetik qism bilan almashinib turadi. Dostonlar ijro etilganda nasriy (proza) qismi hikoya tarzida ma’lum artistik mahorat bilan aytildi va ba’zan rechitativ tarzida kuylanishi ham mumkin. Ammo she’riy bo’limlari doimo kuylanib ijro etiladi va bu erda baxshining so’zamonligi, ustaligi, ishlatiladigan bir necha kuyning har birini mantiqiy rivojga mos keltirishida ham ko’rinadi. Ahamiyatli shuki, O’zbekistonning deyarli barcha mahalliy tuman va viloyatlarida dostonlar maxsus bo’g’iq ovozda, masalan: Xorazmni mustasno etganda do’mbira jo’rligida ya’ni Xorazmda dutor yoki an’anaviy ansambl jo’rligida, rechitativ deklamatsion (Xorazmda kuychan) ohanglar bilan ijro etiladi. Bu, ayniqsa, hozirgi kunda ham doston aytib kelayotgan Qashqadaryo va Surxondaryoning yirik baxshilarini ular maktabiga sodiq yosh iste’dodlar ijrosida yorqin namoyon bo’ladi.

O’zbek xalq dostonlarini tahlil etar ekanmiz, Surxondaryo-Qashqadaryo dostonlari ya’ni voha dostonchiligi juda qadimi, ayni paytda hozirga qadar yaxshi saqlangan mahalliy udum va an’analarga egadir. U o’ziga xos adabiy-nasriy, she’riy, shuningdek, musiqiy-ijodkorlik xislatlar bilan ta’riflanadi.

Doston voqealar rivojining bosqichma-bosqich bayon etilishi jarayonida so’zlar va cholq’u kuylarining o’rni katta. Doston ijrosi mobaynida doimiy ravishda aytiluvchi turli mazmundagi



qo’shiqga oid namunalar “**noma**” deyiladi. Nomalar doston aytuvchi tomonidan do’mbira cholg’u asbobi jo’rligida yo’g’on, bo’g’iq tabiatli, shu boisdan “ichki” deb ataluvchi ovozda ijro etiladi.

Har bir doston har xil turlicha holat, vaziyat va kayfiyatlarini ifodalovchi noma va kuylardan yaratilib tuziladi. Ijro etuvchi- baxshi, muayyan vogelik vaziyatidan kelib chiqib, o’z ijro bisotida bor musiqiy namunalarni tanlab, o’rinli ishlatib kuylaydi. Doston tarkibiga kiruvchi kuy va nomalar kichik hajmli, oddiy tuzilmali bo’ladi. Dostonda foydalanilgan musiqiy tovushlar ko’lami, vazn-usullari jihatdan biroz chegaralangandek tuyuladi. Doston ijrochisining badihago’ylik(erkin tarzda ijro etilgan yoki ijod qilingan badiiy asarning o’ziga xosligi) mahorati orqali bunday qadimiy musiqiy namunalarning rang-barangligi, ta’sirchan va ifodaviyligi ta’minlanadi.

Surxondaryo, Qashqadaryo vohalarida eng keng tarqalgan tarixiy, ishqiy va vatanparvarlik ruhini o’zida aks ettirgan dostonlardan biri sifatida “Alpomish”, “Avazxon”, “Rustamxon”, “Go’r o’g’li” va boshqalarni tilga olish mumkin.

Mavzuni o’rganib tahlil etar ekanmiz, o’zbek xalq dostonlarida vatanparvarlik fazilatlari keng miqyosda ifodalangan, birgina “Alpomish” dostonida Alpomish ya’ni Hakimbekning Barchinni qalmoqlar yurtidan olib kelish qismi juda ta’sirli ifodalanadi. G’aroyib sarguzashtlar, qalmoqlar bilan to‘qnashuv, bosh qahramonning jasoratlari turli vatanparlik fazilatlari bilan ifodalangan. Ushbu dostonning aynan shu lavhasida vatanparvarlik, elu yurt manfaatlari uchun kurash g’oyasi asosiy mazmunni yoritib beradi. Bu esa asarga milliy epos maqomini beradi. Doston yakuni ham ham ibratli yakunlangan: Vatanga muhabbat – shaxsiy manfaatlardan ustun! Ushbu mazmundagi dostonlar bugungi kunda kelajak avlodni vatanga muhabbat, ishonch tuyg’usida tarbiyalashi bilan ahamiyatlidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yunusov R. O’zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. T., 2000, 53-b.
2. Yunusov R. O’zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. T., 2000, 55-b
3. Alpomish. Doston. Aytuvchi Fozil Yo’ldosh o’g’li, nashrga tayyorlovchilar: H.Zarifov, T.Mirzayev.-T.:Sharq,1999.
4. Yormatov I. O’zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati. –T.:Fan, 1994.



## BADIY ADABIYOTDA TARIXIY VA AFSONAVIY QAHRAMONLAR TALQININING QIYOSIY TAHLILI

Usmonxo’jayeva Sarvinoz,  
Namangan davlat universiteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Millatimiz madaniy merosini o’rganib, uni boshqa davlat madaniyati, adabiy merosi bilan taqqoslash, undagi o’xshashlik va farqlarni olib berish uchun bugungi kunda imkoniyatlardan keng foydalanib kelmoqdamiz. Sharqu G`arb adabiy-badiiy munosabatlari, jumladan, adabiy hamkorligi, adabiy ta’sir va aksta’sir, tarjimalar va ularning adabiy hamkorlikdagi roli masalalari ko’p vaqtlardan buyon olim-u ijodkorlarni qiziqtirib kelmoqda. Ma’lumki, adabiyotshunoslik sohasidagi muhim vazifalardan biri Sharq va G`arb o’rtasidagi adabiy aloqalarni o’rganishga qaratilgan. G`arb va Sharq mamlakatlari madaniy munosabatlarining rivojlanishi bosqichida esa taqqoslash va xulosalash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda zaruriy tadqiqotlardan biri hisoblangan ushbu maqolaning dolzarbli – bir-biridan madaniy, mintaqaviy va hududiy uzoq bo’lgan davlatlar badiiy adabiyotidagi o’xshashlik va bir xillilikni olib berish orqali millatlar orasida bu kabi o’xshashliklar uchrashini isbotlash hisoblanadi.

**Kalit so’zlar:** qahramon, personaj, milliy, tarixiy, afsonaviy

Badiiy adabiyot har bir xalqning milliy boyligi hisoblanadi. Uni o’rganish, tadqiq etish va kelasi avlodga yetkazib berish o’sha xalqning katta vazifalaridan biri hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O’zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o’rganish va targ’ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo’llagan tabrigida ham “ Biz sizlarning har biringizni o’zbek adabiyoti va madaniyatining mohir bilimdoni va jonkuyar targ’ibotchisi, O’zbekistonning chinakam do’sti, ma’naviy sohasidagi ishonchli hamkorimiz deb bilamiz va sizlarning oljanob faoliyatizingizni yuksak baholaymiz” degan edi.

Tarixning boyligi uning sodiq va jasur qahramonlari bilan o’lchanadi. Qahramonlar esa har doim ham tug’ilavermaydi.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o’tmishda sodir bo’lgan voqealar, yaqin yoki olis o’tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag’ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmiy tadqiqotlardan farqli o’laroq, yozuvchi yoki shoir tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda to’qimadan ham samarali foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroficha yoritish maqsadida to’qima qahramonlar obrazini asarga olib kiradi.

Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arxiv materiallari, xotiralar va h.k.) asosida o’rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o’sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o’tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o’z xalqining tarixiy o’tmishiga nisbatan hurmat tuyg’usini uyg’otish va shu yo’l bilan ma’rifatli avlodni tarbiyalash; zamondoshlarni tarixiy o’tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash; bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqe va hodisalarga tarixiy o’tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir.

O’zbek adabiyotida zamonaviy tarixiy asar birinchi marta Abdulla Qodiriy tomonidan yaratildi. Yozuvchining „O’tgan kunlar” romani bilan o’zbek adabiyotida tarixiy roman janri maydonga keldi. Oybek „Qutlug‘ qon” romanida Qodiriy boshlab bergen tarixiy roman an’analarni rivojlantirdi va „Navoiy” romani bilan tarixiybiografik roman janriga tamal toshini qo’ydi. Keyinchalik O. Yoqubov „Ulug’bek xazinasi”, P. Kodirov „Yulduzli tunlar”, Muhammad Ali „Sarbadorlar” romanlari bilan tarixiy roman janrini yangi bosqichga olib chiqdilar. Dramaturgiyada tarixiy mavzuda asar yozish tajribasini Fitrat „Abulfayzxon” tragediyasi bilan boshlab berdi. Keyinchalik shu janrda Uyg’un va Izzan Sultonning „Alisher Navoiy”, Hamid Olimjonnt „Muqanna”, Shayxzodaning „Jaloliddin Manguberdi” va „Mirzo Ulug’bek”, Abdulla Oripovning „Sohibqiron” singari tragediyalari vujudga keldi va bu asarlar tarixiy shaxs obrazini yaratishda dramaturgiyaning badiiy imkoniyatlari katta ekanini namoyish etdi. She’riyatda esa turli davrlarda Rafik, Mo’minning „Qapchig’ay”,



Oybekning „Navoiy” va „Hamza”, Sulton Jo‘raning „Bruno”, Usmon Azimning „Xalil Sulton”, Azim Suyunning „Sarbadorlar” singari dostonlari yaratilib, ular tarixiy mavzudagi dostonlarning badiiy tamoyillarini belgilab berdi.

Shoirlar tarixiy o‘tmish manzaralarini hayotiy voqealar va qahramonlar obrazi orqali tasvir etish bilan birga ko‘plab ertakdostonlar ham yaratdilar. Ammo ularni Tarixiy janrga kiritib bo‘lmaydi. Negaki, tarixiy mavzudagi har qanday asarda tarixiylik asosiy badiiy mezon bo‘lishi va yozuvchi o‘z asarida tarix haqiqatiga qat’iy rioya qilishi lozim. Mas., Navoiyning „Saddi Iskandar” dostonida Iskandar Zulkarnayn (Aleksandr Makedonskiy) obrazi mavjudligiga qaramay, uni tarixiy yoki tarixiybiografik asar, deb bo‘lmaydi.

O‘zbek dostonchiligi ta’sirida XX-asr boshlarida ertak va rivoyatlar shaklidagi tojik variantlari ham yuzaga kelgan. O‘rta asr o‘g‘uz eposining muhim yodgorligi hisoblangan «Kitobi Dadam Qo‘rqu» tarkibidagi «Bamsi Bayrak» asari o‘zining syujeti va kompozitsiya qurilishi jihatidan «Alpomish» dostoniga yaqin turadi.»Alpomish» dunyo estetik tafakkuri tarixida kamdan-kam uchraydigan favqulodda va noyob badiiy hodisalardan biridir. Uning favqulodda va noyobligi shundaki, qadimiyatda yaratilgan bu ulkan epos baxshilar tomonidan asrlar davomida kuylanib, jonli epik an’analarda og‘zaki ravishda bizgacha yetib keldi. Shuning uchun ham u bugungi kunda qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o‘zi yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an’anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ommasi ruhining ob’ektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ko‘plab variantlarda va xilma xil ko‘rinishlarda ajoddlardan avlodlarga yetib kelgan adabiy yodgorlik, xalq milliy tarixidagi qahramonlik voqealarining afsonalar qobig‘iga o‘ralgan o‘ziga xos badiiy ifodasi, buyuk epos sifatida baholanadi.»Alpomish» dostoni bundan ming yil oldin turkiy xalqlarning qadim dostonchilik an’analari asosida xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida yaxlit doston shaklini olgan bo‘lsada, aslida «Alpomish» dostonining eng qadim qatlamlari miloddan avvalgi yuz yilliklarda yurtimizda kechgan jarayonlarning badiiy talqinini o‘zida aks ettirgan. Qo‘ng‘iroq qabilasining turli hududlarga siljishi va ularning yangidan shakllanayotgan xalqlar tarkibiga kira borishi natijasida doston boshqa urug‘ va elatlarga ham o‘tib, ularning epik an’analari asosida qayta ishlana borib, juda keng tarqaldi va nihoyat, uning yaratilishida ota-bobolari ishtirok etgan har bir xalqning o‘z eposiga aylandi. «Alpomish» dostonining ogzaki epik an’analarda bizgacha yetib kelgan nussxalari 9–10 asrlarda yaratilgan. Ammo bunday xulosa dostoniga asos bo‘lgan syujet va yetakchi motivlarning mifologik va tarixiy-hayotiy ildizlari qadimgi davrlarga – miloddan avvalgi zamonlarga taqalishini inkor etmaydi. Doston syujet tarkibida islomgacha bulgan karashlar va mifologik qatlam mavjud. Undagi mifologik qatlam esa, qadimgi turmush tarzining badiiylashtirilgan va ideallashtirilgan ko‘rinishlaridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakhronova D. Literatura comparada. – Tashkent: Turon, 2019.
2. Бойназаров Ф. Жаҳон адабиёти. – Тошкент: Зарқалам, 2006.
3. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари) / Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Шарафутдинова М., Тўйчиева Ш. – Тошкент: Маънавият, 2010.



## O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISH USULLARI

**Samandarova Intizor Xaydarovna**

Toshkent shahar Yashnobod tumani 206-maktab

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'zbek tili darslarida o'quvchilarni og'zaki nutqini o'stirish usullarini tahlil etib, ifodalaydi. O'zbek tilini o'qitish tarixi, o'zbek tilini o'qitish jarayonida o'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talablar muhokama etilib, uni bartaraf etish usullari o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, nutq o'stirish usullari, jamiyat, so'z

Ta'lif mazmunida til o'qitish masalasi pedagogika tarixida eng qadimiy va ayni paytda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ta'lif mazmunida muayyan soha bo'yicha berilgan va berilayotgan barcha ma'lumotlar jamiyat va taraqqiyot uchun nisbiyligicha qolaveradi. Jamiyat doimiy rivojlanishda, taraqqiy etishda, takomillashishda davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto'xtov rivojlanib boradi.

O'zbek tilini o'qitish tarixini tahlil etar ekanmiz, o'zbek tilini o'qitish tarixi ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Sharqda IX-XV asrlarda ilm-fan taraqqiy etdi. O'zbek tilini jamiyatga tatqiq etish, Al-Xorazmiy, At-Termiziyy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ismoil Juqoniy, Marg'iloni, Zamashshariy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ulkan mutafakkirlar tomonidan yetkazilgan.

O'zbek tilini o'qitishda nutqni o'stirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilini o'qitishdan maqsad tilning jamiyat a'zolari o'rtasida bajariladigan vazifasi - o'quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o'z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-biri bilan faol munosabatda bo'ladilar. Inson doimo o'zini o'rab turgan tevarak-atrof, jamiyat, moddiy borliqdagi narsa-buyumlar va voqe-hodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va o'z fikrlarini bir-birlariga muloqot orqali yetkazadilar. Insoniyat yashayotgan jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar orasida fikr almashish-muloqot bo'lmasa, jamiyat taraqqiyot etmaydi. Fikr va g'oyalar esa faqat til yordamida ro'yobga chiqadi. Tilni o'rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta'rif va qoidalari o'zlashtirib olish emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash masalalarini egallashdan iboratdir.

O'zbek tili fani bolaga tilni o'rgatish bilan birga, tilning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me'yорини ham o'rgatadi. O'zbek tili mashg'ulotlari o'quvchilarga faqat nutqni egallash yo'llarini emas, balki undan foydalanish madaniyati va mahoratini ham o'rgatib boradi. O'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unda barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsa, fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish osonlashadi. Natijada o'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochiladi. O'zbek tilini o'qitish jarayonida o'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talablar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Puxta tayyorgarlik, materiallarning xilma-xil va qiziqarli bo'lishi, dastlabki davrda og'zaki tarzda olib borilishi, o'quvchilar lug'atini so'z boyligi bilan ko'paytirish usullari va hokazolar.

Nutq o'stirish ishlarini xilma-xil tarzda o'tkazish o'quvchilarning faolligini oshiradi, lug'atini yangi-yangi so'zlar bilan boyitadi, ularda bog'lanishli nutq malakalarini rivojlantiradi.

Maktabda o'quvchilarini o'zbek tili darslarida og'zaki nutqini o'stirish murakkab jarayon bo'lib, u asosan quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi: O'quvchilarni ularga notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish; O'quvchilarga notanish so'z va iboralarni hayot, tevarak-atrof bilan bog'lab tanishtirish; Mediatexnologiya audio materiallari orqali turli qiziqarli dasturlardan foydalanib, o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish; Turli metod, usul va vositalardan foydalanish orqali o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish.

O'zbek tili darslarida o'quvchilarni og'zaki nutqini o'stirishda turli metodlardan foydalanish ham samarali natijalarni beradi.

Zanjir metodi. Bu metoddan foydalanish quyidagicha:

Bir o'quvchi biror shaharning nomini aytadi, keyingi o'quvchi birinchi aytilgan shahar nomiga yangi bir shahar nomini qo'shib aytadi. Keyingi o'quvchi ham xuddi shunday birinchi va ikkinchi o'quvchilar aytgan shaharlar nomini aytib o'zi ham yangi bir shahar nomini aytadi.



Shu tariqa so‘zlar zanjir bo‘lib davom etadi.

Bu metoddan foydanilayotganda aynan shaharlar nomi bo‘lishi shart emas. Aytaylik mevalar yoki mavzuga oid so‘zlar, o‘zbek tilida og’zaki nutqni o’stirishda yangi mavzuga oid so‘zlar va hokazolar bo‘lishi mumkin.

ushbu metoddan foydalanish o‘quvchi xotirasini mustahkamlashda va talaffuzni to’g’irlashda, nutqni o’stirishda samarali yordam beradi.

“Davrlar almashinuvi stuli” metodi. Bu metoddan foydalanayotgan o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagicha savollarni beradi: Sizning yoshingiz nechada? Oilada necha kishisiz? Sizni nimalar quvontiradi? Sizning orzularingiz qanaqa? Sizni nima hovotirga solayapdi? kabi savollarni yoki yangi mavzuga oid savollarni beradi.

O‘quvchilar savollarning javobini hozirgi vaqtda aytishganidan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga ular o‘tirgan stul ”Davrlar almashinuvi stuli” ekanligini, bu stul orqali o‘tgan zamonga, aytaylik 2015-yilga tushib qolganliklarini aytadi. Shundan keyin yuqoridagi savollarni takrorlaydi.

Bu savollarning javoblarini aytishganidan so‘ng endi kelajakka taxminan 2030-yillarga sayohat qilishlarini aytadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga yana o‘sha savollarni beradi. Bu metoddan foydalanish o‘quvchining maqsadlarini aniqlab olishi uchun yordam beradi. Shuningdek, ushbu metodda fikr almashinuvi orqali muloqotga kirishiladi va nutq o’stirishda samarali natija beradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro’yhati:**

1. Babayeva D.R. “Nutq o’stirish metodikasi” T.: TDPU 2016-yil. O’quv qo’llanma
2. Ziyodova T. O‘quvchilami mustaqil fikrlashga o’rgatish. — T.: “O‘qituvchi”, 2000.
3. Nazarova S. “O‘zbek tili o ‘qitish metodikasi”. “O‘qituvchi”, 1992.
4. Abdullaeva K va boshqalar. Savod o’rgatish darslari.T.,«O‘qituvchi».1996 -yil.



## RAUF PARFI TARJIMALARIDA LIRIK SUBYEKT TADRIJI

**Yuldashev Dilmurod Ne'mat o'g'li**  
Berdaq nomidagi QQDU magistranti

**ANNOTATSIYA:** Odadta “Lirik subyektning she’riyatdagi bosh vazifasi nimadan iborat?”, - degan masalada gap ketganda, uning qalb kechinmalarini ko‘rsatishda asosiy poetik unsurlardan biri ekanligi e’tirof etiladi. Ma’lumki, tarjimada lirik subyekt qayta tiklanadi va ruhiyatda kechadigan oniy xolatdagi kechinmalarga asoslanadi.

**Kalit so’zlar:** lirik subyekt, tasvir quyuqligi, lirik gap, badiiy voqelik, lirik kechinma, ramziylik, hissiyot uzlusizligi.

**ANNOTATION:** When asked, “What is the main function of the lyrical subject in poetry?”, It is generally acknowledged that it is one of the main poetic elements in the expression of the feelings of the soul. It is well known that in translation, the lyrical subject is reconstructed and based on instantaneous experiences in the psyche.

**Keywords:** lyrical subject, image thickness, lyrical speech, artistic reality, lyrical experience, symbolism, emotional continuity.

**АННОТАЦИЯ:** На вопрос: «Какова основная функция лирического субъекта в поэзии?», общепризнано, что он является одним из главных поэтических элементов в выражении чувств души. Известно, что в переводе лирический сюжет реконструируется и основывается на мгновенных переживаниях в психике.

**Ключевые слова:** лирический субъект, образная плотность, лирическая речь, художественная реальность, лирический опыт, символизм, эмоциональная преемственность.

“San’atkorning hislari, hatto uni qamab qo‘ysangiz ham tashqarida yuradi. San’atkorning miyasida olam fojiasi aylanadi.”, - degan edi Rauf Parfi. Shoir lirkasi va tarjimalarida ruhiyat olamini anglatishga bo‘lgan intilish, ziddiyat va qarama-qarshiliklar mohiyatiga chuqurroq kirib borishga harakat, ranglar uyg‘unligi va tasvirning quyuqligi yotadi. Shoir ijodida olam hodisalariga, hayot manzaralariga turli tomondan yondashiladi. “Bir predmetga bir talay nigoh tashlash” hodisasi kuzatiladi. Hayot va insondagi o‘zgarish va kechinmalar shoir qalbida sintezlashadi. Ijodkor har bir voqelik, hayot haqiqatiga o‘z badiiy g‘oyasi ko‘zi bilan qarab, yondashib, undan ma’no, ramz topib o‘z dunyoqarashi va estetik ideali kuchi, aqliy va hissiy qobiliyati, aniq maqsadi bilan turli kechinma tasvirlarini yaratadi. Chunki lahzalik kechinma lirikaning asosiy qurilish materiali bo‘lib, fikr, g‘oya ifodalash, o‘zgalarga hissiy ta’sir etish, ularni fikrlatish, hamdard tuyg‘ular, qarashlar uyg‘otishning eng zarur va zarif usuli, yo‘li. Ijodkorning betakrorligi esa tom ma’noda u yaratgan va topa olgan obrazlar qamrovi, hayotiyligi, ta’sirchan, samimiyy va haqqoniyligi, estetik munosabatidadir. Rauf Parfi tarjimalaridagi betakror obrazlar silsilasi ana shu qarashni isbotlaydi. Shoir tarjimalarida lirik subyekt iztiroblari turfa xil obrazlar asosida o‘z aksini topgan.

Ma’lumki, she’riyatda lirik subyekt tasviri o‘ziga xos talqinlarga ega. Bu talqinlar eng avvalo, ruhiyatda kechayotgan oniy holatdagi kechinmalarga asoslanadi. She’riyat shu jihat bilan boshqa adabiy turlarga nisbatan ma’lum bir dramatizmga, qisqa fursatli kechadigan ruhiy po’rtanalarga, ziddiyatli o‘y-xayollarga izn beradi. Ayni paytda shoir “men”i bilan lirik subyekt kechinmalaridagi uyg‘unlik, mushtarakliylik tuyg‘ularning o‘ziga xosligini ta’minalashga xizmat qiladi. Binobarin, she’riy asarlarda shoir “men”i bilan lirik qahramonning o‘zligini namoyon qilishi qayerda birlashib, qaysi o‘rinlarda alohidalik kasb etishini anglash mushkul kechadi. Zero, shoir ijod jarayonida o‘z orzu istaklari va alam-hijronlarini qog‘ozga to‘kishi ayni haqiqat. Bu tizginsiz oniy kechinmalar she’rda umumlashma mohiyat kasb etsa, kitobxonga yuqsagina lirik subyekt sifatida o‘zligini namoyon qiladi:

*Hayotning saslari go ‘shimda ko ‘p faryod shaklinda,  
Bu insonlar ki qardoshdir va lekin yot shaklinda,  
Bu tuproq qonli avlokdir; bashar sayyod shaklinda,  
Adovat doimo bordir, muhabbat ot shaklinda,  
Bu dunyo eskidandir sahnai bedod shaklinda.<sup>1</sup>*

(Muhammad Hodiy)

1 Rauf Parfi “Turkiston ruhi”. Saylanma. “Sharq” nashriyoti, T.: 2013. B-274



Lirik qahramon she’riyatda lirik gap predmeti gavdalanishning asosiy shakli. Bu shoiring o’zi emas, chunki u shoir tomonidan yaratilgan obraz bo’lgani uchun, albatta, uning hayotida bo’lgan va bo’limgan hamma narsani o’ziga singdirmaydi, lekin boshqa tomondan, yangilikka tegishli, badiiy voqelik birlamchi voqelikka olib kirgan, uni boyitgan hamda kengaytirgan:

*Dunyoni topshiraylik bolalarga,  
hech bo’lmasa bir kunga,  
Ol alvon bir shar kabi beraylik o ‘ynasinlar.  
O ‘ynasinlar qo ‘shiqlar ko ‘ylab yulduzlar orasida.  
Dunyoni bolalarga topshiraylik.  
Ulkan bir olma kabi,  
topshiraylik issiq bir non abi,  
Hech bo’lmasa bir kun to ‘ysinlar.  
Dunyoni bolalarga topshiraylik.<sup>1</sup>  
(Nozim Hikmat)*

Rauf Parfi tarjimalarida lirik kechinma ramziylik, ba’zan ochiq mazmunning bo’rttirib ifodalanishi kabi qator munosabatlarda ko‘zga tashlanadi. Adabiyotshunos N.Rahimjonov shunday yozadi: “Iste’dodlarning san’atkorligi – bu bashariy qadriyatga, umumbashariy madaniyatga daxldor ilohiy hodisa. U qo’l bilan ushlanadigan, ko’z bilan ko’rildigan oybolata-yu belkurak emas. U shuurimizga tafakkur yog’dularini olib kiruvchi, tuyg’ularimizni tarbiyalovchi, ko’ngil ma’rifati, ma’naviyat hikmati”.<sup>2</sup> Rauf Parfi tarjimalarining psixologik hamda falsafiy qirralari, adabiy talqindagi tuyg’u va ong nisbati, ma’no ko‘chish usullari, matnda tasvir va ifoda uyg‘unligi xilma-xildir. Aslida aynan shu xususiyatlar tasavvur yorqinligini ta’minlaydi. Tarjimon qayta tiklayotgan lirik subyekt o’zida ijod falsafasining yuksalishi va tanazzulini jamlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarjimon tomonidan qayta tiklangan lirik subyekt, yuqorida ko‘rib o’tilganidek, tarjimada lirik kechinmaning bo’rttirib ifodalanishiga, ta’sir doirasini oshishiga, hissiyot uzlucksizligini ta’minalashga xizmat qilgan. Shuningdek, hissiyot va fikrni umumlashtirishga, fikrni aniqroq bayon etishga, hissiy ifodalar tadrijiga ham imkoniyat yaratgan.

### ADABIYOTLAR:

1. Salomov G’, A’zamov S. Tarjima asoslari // o’quv qo’llanma - Toshkent: adabiyot va san’at nashriyoti, 1976.
2. Salomov G’, Saidov F. Matn, tarjima va istiloh // Filologik tahlil. - Toshkent: 1989.
3. Salomov G’. Tarjima nazariyasi asoslari -Toshkent: O’qituvchi, 1983.
4. Rauf Parfi “Turkiston ruhi”. Saylanma. “Sharq” nashriyoti, T.: 2013
5. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. -T.: «Sharq», 2002.
6. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.
7. Normatov U. Ko‘ngillarga ko‘chgan she’riyat. -T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi. 2006.
8. Xudoyberganov N. Haqiqat yog‘dulari. -T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.

1 Rauf Parfi “Turkiston ruhi”. Saylanma. “Sharq” nashriyoti, T.: 2013. B-301  
2 N.Rahimjonov. Mustaqillik davri o’zbek she’riyati. –Toshkent, “Fan”, 2007. 196-bet.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000